

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



“Himoyaga ruhsat etildi”
Pedagogika fakulteti dekani

X. Mavlyanov

X. Mavlyanov

5111100- Musiqa ta'limi

Aliberdiyeva Adibaning

**Mavzu: “An’anaviy xalq qo’shiqlarida ajdodlar merosining ulug’lanishi”
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etildi”
Musiqiy ta’lim kafedrası mudiri

O. Azizov
prof O. Azizov
“ ” 2017 y

BMI rahbari: *N. Abdullayev* **N. Abdullayev**

Reja

Kirish

I bob. VI-VII sinflarda qo'shiqchilik ovozi va DTS talablari


- 1.1. DTS bo'yicha VI-VII sinf dasturiga qo'yilgan talablar
- 1.2. O'quvchilarda vokal – xor malakalarini shakllantirish
- 1.3. Xalq qo'shiqlarini o'rganishda musiqa savodiga e'tibor

II bob. Yuqori sinflarda an'anaviy xalq qo'shiqlaridan foydalanish

- 2.1. An'anaviy xalq musiqa ijodining janrlar tarkibi
- 2.2. O'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalq qo'shiqlarining ahamiyati
- 2.3. An'anaviy xalq kuy – qo'shiqlari –estetik tarbiya vositasi
- 2.4. O'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish yo'llari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar



Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori musiqa predmetining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda.

O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlar, shu jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi.

"Insonning ruhiy olami, nozik his – tuyg'ulari, ichki kechinmalari uning ijtimoiy faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Barkamol ruhiy ko'tarinkilik, ajib ichki his – tuyg'ular va ichki kechinmalarni munosiblashtirishda jozibali musiqaning sehrli ta'siri beqiyos ulkandir" – deb bejiz aytmagan edi prezidentimiz I.A.Karimov.¹


Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.²

Musiqa madaniyati o'quv fanining mazmuniga bo'lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr va simfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy

¹ I. Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T. 2008 y.

² I.Karimov. "Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori". Toshkent. – 1997 y.



sahna asarlari, xalq va professional musiqasi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, an'anaviy xalq cholg'u asboblari bilishni mashhur an'anaviy xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, ustozona, mumtoz musiqa Sharq xalqlari musiqasi, qardosh va jahon xalqlari musiqasi, ularning taniqli nomoyandalari, maqom va shashmaqom, uning mashhur ijrochilari faoliyati o'zbek musiqasida mahalliy uslublar va uning mashhur ijrochilari, o'zbek milliy musiqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.¹

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy ham amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.


1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

VI-VII sinf o'quvchilari musiqa san'atida mahalliy uslublarni mahalliy shevalariga, mahalliy kiyim madaniyatiga qiyoslab o'rganishlari, mahalliy musiqiy an'analar va merosimizdan namunalarni bilishlari, o'z viloyati va turar joylarida mashhur bo'lgan mashshoqlar, xonandalar, dostonchilar, yallachilar va boshqalarning ijodi, ularning o'ziga xos ijro xususiyatlarini o'rganishlari, bu borada o'quvchilar bilan maxsus izlanishlar, uchrashuvlar, davra suxbatlari o'tkazishlari lozim. Ular ustozona musiqa, uning xalq musiqasidan farqli jihatlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari, ustozona musiqa mohiyati mumtoz ahamiyatga ega bo'lgan barkamol asarlar ekanligini, shashmaqom ashula bo'limiga doir asosiy yo'llarni ajrata bilishlari kerak.

Davrimizning harakterli belgilaridan biri an'anaviy xalq qo'shiqlarining nihoyatda ommaviy tus olganligidir.

Yurtimiz ijtimoiy – siyosiy, madaniy hayotida yuz berayotgan katta o'zgarishlar yangi insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishni talab

¹ O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonuni. Toshkent. – 1997 y.



qiladi. San`at, adabiyot, shu jumladan, xalq ijodiy zakovati bo`lgan xalq musiqasi oldiga ham g`oyat muhim vazifalar qo`ydi.¹

An`anaviy xalq qo`shiqlari ham boshqa musiqa janrlari singari badiiy va g`oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal shakllarga, juda ko`p tarixiy dalillarga ega bo`lgan san`at turidir.

Shuning uchun ushbu bitiruv malakaviy ishida maktabning VII sinf o`quvchilariga tarixan sayqal topgan an`anaviy xalq qo`shiqlarining bolalarbop namunalaridan darslar jarayonida ijodiy foydalanib tinglashni va jamoa bo`lib kuylatishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.


Ushbu talabalik ilmiy ishining dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda umumiy ta`lim maktablarida an`anaviy xalq qo`shiqlarini maktab repertuariga kiritish va ularni o`rgatish juda ham oz foizni tashkil etadi. Shularni e`tiborga olib, har bir sinfda, har bir chorak davomida kamida bittadan an`anaviy xalq qo`shiqlaridan namunalar o`rgatish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun bitiruv malakaviy ishi mavzusi o`z oldiga quyidagi vazifalarni belgilaydi.


1. O`quvchilarni an`anaviy xalq qo`shiqlariga bo`lgan muhabbatini o`stirish.
2. Xalq qo`shiqlari orqali bolalarda milliy an`ana va qadriyatlarga bo`lgan munosabatni kamol toptirish.
3. Yirik shakldagi xalq qo`shiqlarini musiqa tinglash repertuariga kiritish.

O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da xalq qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyati alohida qayd qilingan. Xususan, yoshlarni “Ma`naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy, madaniy, tarixiy an`analariga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy – pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi” deyilgan. Ushbu muhim davlat hujjatida xalq qo`shiqlarining asrlar bo`yi yosh avlodni tarbiyalash vositasi bo`lib kelganligi alohida ta`kidlangan.

¹ A. Xasanov. Musiq va tarbiya. T. 1992 y.



Musiqa va qo'shiqchilik o'zining ixlosmandlariga ma'naviy boylik, axloqiy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirishda yordam berish bilan birga milliy, madaniy merosimizni rivoj topishida ham katta ahamiyatga egadir.



I bob. VI-VII sinflarda qo'shiqchilik ovozi va DTS talablari

1.1. DTS bo'yicha VI-VII sinf dasturiga

qo'yilgan talablar

Maktabda har xil qo'shiqlar ijro etish va o'rganish musiqa tarbiyasining asosiy shakli hamda musiqa savodi va musiqa tinglashning zaminidir.


Musiqa o'qituvchisi maktabning VI-VII sinfida o'rgatish uchun tavsiya qilinayotgan qo'shiqlarni har tomonlama puxta o'ylab tanlab olishi kerak. Repertuarga kiritiladigan qo'shiqlar g'oyaviy – badiiy qiymatiga qarab tanlanmog'i, o'quvchi bolalarga tushinarli va mavzu jihatidan xilma – xil bo'lmog'i lozim. Ona Vatan, tabiat, maktab va bolalar hayoti, yoshlikka doir qo'shiqlar, hazil – mutoyiba qo'shiqlar, lirik va mumtoz ashulalar, qahramonlik qo'shiqlari shular jumlasidandir. Tanlangan asarlarning bir qismi yil fasllari va atoqli sanalar bilan bog'liq bo'ladi.

An'anaviy xalq qo'shiqlari qatorida boshqa qardosh xalqlarning qo'shiqlari ham o'rganib boriladi. Bu qo'shiqlarning hammasi o'quvchilarni o'z Vataniga, xalqiga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Bolalar o'z xalq qo'shiqlarini sevishadi, shuningdek, boshqa xalqlarning qo'shiqlarini ham qadrlab o'rganishadi.¹

Davlat ta'lim standartiga ko'ra VII sinfda yil mavzusi: "Xalq musiqasining mahalliy uslublari, maqomlar haqida umumiy tushuncha" deb belgilangan. I – chorak mavzusi: "Qashqadaryo – Surxondaryo, Samarqand – Buxoro vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv". Bolalar I-chorakda quyidagi asarlarni jamoa bo'lib kuylaydilar.

1. "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi" A.Oripov she'ri. M.Burxonov musiqasi.
2. "Mustaqillik lolalarimiz" R.Abdullaev musiqasi, N.Narzullaev she'ri.
3. "Buxoro" H.Rahimov musiqasi, S.Barnoev she'ri.
4. "O'zbekiston – onajon" M.Otajonov musiqasi, Qambar ota she'ri.

¹ Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Toshkent. 5 tom, 1960 y.



5. “Yoshlik sening parvozingdir” N.Norxo’jaev musiqasi, P.Mo’min she’ri.
6. “Ey nozanin” An’anaviy xalq qo’shig’i.

II – chorak mavzusi: “Farg’ona – Toshkent hamda Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv” bo’lib, bu chorakda quyidagi asarlar kuylashga tavsiya etiladi:


1. “Yoshlik zavqi” N.Norxo’jaev musiqasi, Q.Saidmurodov she’ri.
2. “Ona tilim, o’zbek tilim” F.Alimov musiqasi, P.Mo’min she’ri.
3. “Soqinoma savti kalon” An’anaviy xalq kuyi, Bobur g’azali.
4. “O’zbekimdan aylanay” N.Norxo’jaev musiqasi, H.Rahmat she’ri.
5. “Ey, mehribonim” xalq musiqasi, Chokariy so’zi.
6. “Bir kelsun” Navoiy g’azali.

III – chorak mavzusi: “Maqom. Shashmaqom” bo’lib, chorak davomida quyidagi ashulalar o’rganilib boriladi:

1. “Onajonim” Q.Ma’mirov musiqasi, Sh.Sa’diy she’ri.
2. “Yurtga sadoqat” H.Rahimov musiqasi, S.Barnoev she’ri.
3. “O’lkamga bahor keldi” Q.Ma’mirov musiqasi, T.Niyoz she’ri.
4. “Keng Turkiston” N.Norxo’jaev musiqasi, P.Mo’min she’ri.
5. “Iroqi Buxoro”. Buzruk maqomidan I bayt asosida.
6. “Soqiynomai Mug’ilchai Dugoh”. “Dugoh” maqomidan.

IV – chorak mavzusi: “Xorazm maqomlari, Farg’ona – Toshkent maqom yo’llari”. Chorakda quyidagi ashulalar o’rgatiladi:

1. “O’z yurtini sayr etsang” F.Alimov musiqasi, P.Mo’min she’ri.
2. “Turkiston farzandlarimiz” d.Omonullaev musiqasi, T.Mullaboev she’ri.
3. “Navro’z qo’shig’i” R.Abdullaeva musiqasi, Nazarmat she’ri.
4. “Vatanginam” A.Mansurov musiqasi, P.Mo’min she’ri.
5. Chorgoh IV.
6. Dugoh – Husayn IV. Dilafgor she’ri, Farg’ona – Toshkent maqom yo’lidan.




VI-VII sinf darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

- bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb etish;
- qo'shiq haqida o'qituvchining qisqa kirish so'zi hamda qo'shiqni ijro qilish;
- suhbat yo'li bilan qo'shiqning musiqa harakteri, uning ifoda vositalari va mazmunini aniqlash hamda ayrim ijro usullarini belgilash;
- qo'shiqni fraza (jumla)larga bo'lib o'rgatish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash;
- qo'shiqni ijro etish va qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish (umumlashtirish).

Ayniqsa, qo'shiqni badiiy – g'oyaviy jihatdan tahlil etganda, mazmun jihatdan chorak mavzui maqsadidan kelib chiqishga va uning badiiy g'oyasi vositasida bolalarga axloqiy estetik tarbiya berishga e'tiborni qaratmoq lozim. Buning uchun o'qituvchi qo'shiqni ham o'rgatish, ham ijro etish va uning badiiy – g'oyaviy mazmunini bolalar ongiga singdirish uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish shart. Shu maqsadda qo'shiq mazmuniga doir rang – barang surat va rasmlardan ham foydalanish mumkin.

VI-VII sinfda qo'shiqni o'rgatish metodlari qo'shiqning harakteri va vokal – xor imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Shuning uchun yuqorida bayon etilgan qo'shiq o'rgatish bosqichlari qat'iy sxema emas. Ayrim hollarda qo'shiqni o'rganish uning g'oyaviy – axloqiy mazmunini ochib beruvchi kirish suhbatleri bilan boshlansa, ba'zida esa qo'shiqni kuylab ko'rsatish yoki texnik vositalari yordamida eshittirishdan boshlanadi. Agar qo'shiq bolalarga tanish bo'lsa, uning harakteri va mazmuni qisqa suhbatda aniqlanadi. Asosiy maqsad – o'quvchilarni qo'shiqni o'rganishga ko'proq qiziqтира olish va ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. O'qituvchi qo'shiqni yoqimli ovozda kuylab ko'rsatishi shart. Chunki o'qituvchining bolalarga tanish va ta'sirli ovozi ularni asarga qiziqtirish uchun jonli vosita hisoblanadi.




VI-VII sinfda qo'shiq o'rgatish uslublarini almashtirib turish sinfda zerikishning oldini oladi. Buning uchun yakka, guruh va umumiy xor bo'lib kuylash, bir guruh kuylasa, ikkinchisi chapak bilan jo'r bo'lib turishi mumkin.

Bolalar iborani qanday boshlab, qanday tugatayotganligini diqqat bilan quloq solish va buni hamma bolalarning bir vaqtda bajarishiga erishish kerak. Hamma musiqa o'qituvchilari bunga rioya qilmaydilar. Shunday ham bo'ladiki, bolalar o'qituvchi aytayotgan ashulaga baravar qo'shilmasdan, oldinma – ketin qo'shiladilar. Bu – bolalarning diqqati bir joyga to'planmaganligini bildiradi va ijro esa bir – biriga bog'lanmay qoladi. Bolalarni o'qituvchining qo'l harakatiga qarab ashulani boshlashga odatlantirish zarur. Agar bolalar o'qituvchining qo'l ishoralarini tushunmay qolgan bo'lsa yoki hamma bir xil diqqat bilan qaramagan bo'lsa, ularni darhol ashula aytishdan to'xtatish kerak va yangidan boshlashga qo'l harakati bilan ishora qilish lozim. Bolalar sekin – asta dirijyorning qo'l ishorasiga o'rganadilar va hammalari baravar boshlab ijro eta boshlaydilar.¹

Ashulani baravar boshlash malakasi bilan birga jumlani baravar tugallash malakasiga ham odatlantirmoq lozim. Albatta, bunga erishish qiyin. Shunga ko'ra jumla oxirida tovushning cho'zilib ketmasligiga va o'z vaqtdan ilgari to'xtab qolmaslikka e'tibor berishi hamda tuzitib borishi shart.

I-VII sinflarda musiqa o'qitish jarayonida VI-VII sinf o'quvchilari bir – biriga fiziologik va psixologik jihatdan yaqin turadilar. Ularda o'spirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Organizmda faol o'zgarishlar – bo'yni o'sishi, buning natijasida bosh miya ba'zan yetarli darajada ozuqa ololmay horg'inlik holatlari sezilishi kabilar ro'y beradi. Bunda ular o'zlarini kattalardek tutishga. Hayotda o'z o'rinlarini belgilashga urinadilar. Shuning uchun kattalarning munosabatiga jiddiy e'tibor beradilar, o'zlari bilan bachkana munosabatda bo'lmaslikni istaydilar. Buni hisobga olmagan o'qituvchi ayrim bolalar bilan nizo chiqarishi mumkin. Shuning uchun sinfdagi har bir o'quvchini yaxshi o'rganish, ular bilan to'g'ri, jiddiy va do'stona munosabatda ish tutish lozim.

¹ Yusuf Hos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent. – 1971 y.




Bu vaqtda bolalarda mutatsiya (ovozning o'zgarishi) davri boshlanadi. Mutatsiya davrigacha o'g'il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, mutatsiya davrida ular bir – biridan farqli ajraladi. O'g'il bolalarda tomoq bir yarim – ikki marta o'sadi, qiz bolalarda uchdan bir hissa o'sadi. Natijada o'g'il bolalarda ovoz registr jihatdan bir oktava pasayib yo'g'onlashadi, qiz bolalarda esa osoyishta va tekis amalga oshadi, registr o'z o'rnida qoladi, ovoz kuch, tembr va mayinligini deyarli saqlab qoladi. Shu boisdan o'g'il bolalarda mutatsiya faol va sezilarli darajada amalga oshadi. Natijada o'g'il bolalar ashula aytganda ba`zan sozga ham tusholmay qiynaladilar, yuqori notalarni kuchanib kuylaydilar. Bu davrda o'g'il bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovoz, qiz bolalar ovozi esa balog'atli xotin – qizlar ovozi tipiga asta – sekin o'ta boshlaydi.

O'g'il bolalar tomog'ida ovoz boylamlari yo'g'onlashadi, qizaradi, qirg'oqlarida ba`zan shishlar paydo bo'ladi. Natijada diapozon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash og'irlashadi, tezda charchash holatlari ro'y beradi. Mutatsiya davrida o'g'il va qiz bolalarda ashula o'rgatish ishi mas'uliyat talab etadi. Qo'shiqlar bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ovozlarni asrab – avaylagan holda o'rgatilishi lozim. Darsning asosiy qismini ashula o'rgatishga sarf etib, ovozni charchatmaslik lozim. Ovozlarni partiyalarga aniq ajratib, ikki ovozda ashula aytirish ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. VII sinfda o'qituvchining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Sinfdagi umumiy kayfiyatni va bolalarning musiqa darsiga, musiqa san`atiga bo'lgan munosabatini har tomonlama o'rganib hisobga olish.

2. Har bir o'quvchining psixologik va fiziologik jihatdan chuqur o'rganish, uning ovoz o'sishi, mutatsiya davrini hisobga olib borib, ovoz partiyasini belgilab olish.

3. Bolalarni musiqa darsi va san`atiga qiziqtirish. Musiqa bu ruh ozug'i, hayotning badiiy aksi, inson qalbining yo'ldoshi ekanligi haqida tushuncha hosil eta bilish.



4. Musiqa mazmunini madaniy hayotimiz bilan bog'lab o'tish, uning vositasida axloqiy – estetik tarbiya berish, dars mazmunini boshqa predmetlar bilan o'zaro bog'lab olib borish.


Sinfda har bir o'quvchiga doimiy o'rinni belgilab qo'yish muhim ahamiyatga egadir. O'quv yilining boshida, agar o'qituvchi o'quvchilarning qobiliyati bilan tanish bo'lmasa, oldingi qatorga bo'yi past bolalarni, orqa qatorlarga bo'yi balandroq bolalarni o'tqazish kerak.

O'qituvchi ish jarayonida asta – sekin bolalarni shunday joylashtirishi lozim: yetarli musiqa qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalarni o'ziga yaqin bo'lgan oldingi qatorga va kuchliroq o'quvchilarni yetarli musiqa qobiliyatiga ega bo'lmagan o'quvchilar orasiga o'tqazadi, kuchlilar kuchsizlarga yordam berishi va yetakchi bo'lishi lozim.

Yuqori sinflarda ikki ovozda ashula aytish boshlanganda bolalarni partiyalarga bo'lib, ikkinchi ovozda ashula aytadiganlarni o'qituvchiga yaqinroq o'tqazish kerak.

O'qituvchi bolalarning hamma vaqt o'z joyida o'tirishlarini kuzatib borishi va ularning o'zboshimchalik bilan o'rinlarini ko'chirib turishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Har qaysi o'quvchi bir joyni muayyan va qat'iy qilib birkiritib qo'yish ishlari birinchi chorakning oxirigacha tamomlanishi lozim, lekin ayrim hollarda butun o'quv yili davomida bitta – yarimta bolalarni o'tirgan joyidan boshqa joyga o'tqazish ham mumkin.

Har bir o'quvchiga muayyan bir joyning birkiritib qo'yilishi sinfda intizom o'rnatilishiga yordam beradi. Intizom – ashula darsida birinchi darajali ahamiyatga ega. Musiqani ijro etish yoki eshitish butunlay tinchlikni va faol diqqatni talab qiladi. O'qituvchi birinchi darsdan boshlaboq ashula darsida tinchlik saqlanishi va darsda bolalarning o'tirish – turish qoidalariga rioya qilishlari lozimligini tushuntirishi kerak. Keyingi darslarda o'qituvchi qabul qilingan qoidalarining bajarilishini sistemali ravishda va qattiq turib talab qilishi kerak. Masalan, o'qituvchining savollariga hamma o'quvchilarning baravardan javob berish uchun qo'l ko'targan boladagina so'rash lozim. O'quvchilar o'qituvchining ishorasi



bilangina ashula aytishga boshlashi va ashula aytishni to'xtashi lozimligini har doim esda tutishlari kerak.¹

Sinfda intizom saqlashning eng muhim sharti o'quvchilarning o'qituvchiga nisbatan qanday holatda o'tirishiga bog'liqdir. Cholg'u asbobini, ayniqsa, pianinoni shunday joyga qo'yish kerakki, uni chalib o'tirgan o'qituvchi hamma o'quvchini ko'rib turadigan bo'lsin. O'quvchilar ashulani jo'rtaga buzib aytsa, intizomni buzishga biror xatti – harakat qilsa, o'qituvchi ularga qarshi chora ko'rishda kichkinagina xatolikka ham yo'l qo'ymasligi kerak. O'qituvchi juda talabchan, lekin shu bilan birga qo'ygan talablari adolatli bo'lishi kerak, hamma o'quvchilarga beg'araz munosabatda bo'lishi lozim. Lekin haddan tashqari talabchan bo'lish va sinfni jiddiy hamda qo'rquv ostida saqlash yaramaydi. O'qituvchi bazan bolalarning arzimagan sho'xligini “sezmasligi”, bolalarga biroq dam berish uchun hazillashib qo'yishi, darsdan qisman chetga chiqishi ham mumkin.


O'qituvchining darsdagi tovush toni katta ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi sal narsaga jahli chiqaversa, qo'pol, tez va zaharxandalik bilan gaplashsa, bo'lar – bo'lmasga baqirib, hattoki musht bilan stolga ursa va shu yo'l bilan yaxshi intizom o'rnataman deb o'ylasa, xuddi shunday o'qituvchilarda bu narsalarning bo'lmasligi turgan gap. Bu soxta tushinilgan talabchanlik o'qituvchining obro'ini to'kadi, o'quvchilarda esa darsga bo'lgan havas yo'qoladi.

Darsning unumli o'tishi, bolalarning mustahkam bilim olishlari uchun o'qituvchi darsda beriladigan materiallarni juda yaxshi bilishi kerak. U sinfda o'rganiladigan hamma ashula matnini, kuyini va xor ovozlarni yoddan bilishi shart. O'qituvchi o'zidagi nuqsonlarni yo'qotish, darslarni to'g'ri olib borish metodlarini egallash ustida sistemali ish olib borishi zarur.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Apraksina O.A. “Metodika muzo'kal nogo vospitaniya v shkole”. Moskva – 1983.
2. VII sinf musiqa darsligi. Toshkent – 1998.

¹ Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. Ko'p tomlik. Toshkent. –1972 y.



3. A.B.Vasil yeva “Ashula darslari metodikasi”. Toshkent – 1971.
4. “Metodicheskie rekomendatsii k urokom muzo’ki v obheobrazovatel noy shkole”. Moskva – 1971.
5. Qo’ldashev L.X. “Maktabda xor to’garagi”. Toshkent – 1975.
6. Hasanov A. “Maktabda ashula”. Toshkent – 1981.




1.2. O'quvchilarda vokal – xor malakalarini shakllantirish

VI-VII sinfda darsda o'quvchilarning o'tirish va turish holatiga qat'iy e'tibor berish kerak. Bu partada o'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'lva oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuncha berish va uni doimo nazorat qilishdan iboratdir.

Ma'lumki, kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug'ilgan kundan boshlab tabiiy holda amal qila boshlaydi va aniq bir ritmda va ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Ashula aytishda esa nafas olish tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Nafas chiqarish esa qo'shiq jumlasining cho'zimiga, sur'atiga va harakterining ifodalanishiga qarab cho'ziladi. Nafas ritmi kuylanayotgan qo'shiq harakteriga qarab o'zgarib turadi va tabiiy nafasga nisbatan biroz chuqur olinadi.

O'quvchilarning ko'krak qafasi hali tor va qisqa ekanligi sababli ular nafasni ko'krak bilan oladilar va shu bois ashula aytganda yelkalarini ko'tarib, shoshilib va qo'shiq jumlasini va so'zni bo'lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun bolalarni yelkalarini ko'tarmasdan osoyishta, vazmin nafas olish va uni qo'shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda yetkazish, ayniqsa, so'zni bo'lib nafas olmaslikka o'rgatib borish lozim.

VI-VII sinfda o'quvchilar mashq va qo'shiqlarni kuylaganlarida o'qituvchining qo'l ishoralariga qarab nafas olishga va uni rasamadi bilan jumla oxirigacha yetkazishga odatlantirilib boriladi. Ayniqsa dirijyorlik holatlari – “Diqqat”, “Auf”, “Ijroni boshlash”, “Ijroni tugatish”ga rioya etib kuylashga o'rgatish nafasni rejaga solish uchun muhimdir. Bolalar nafasi hajmining imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo'shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo'yiladi, ularni o'rganish va ijro etish jarayonida ular amal qilinadi.




VI-VII sinf bolalarida ovozning vujudga kelishi murakkab psixologik – fiziologik jarayondir. U ovoz apparatining nafas va eshituv apparatlarining birgalikdagi amaliyotida hosil bo'ladi. Tomoqda hosil bo'lgan tovush kuchsiz va xishshilab sadolanib, uning nutq apparati, ayniqsa, burun bo'shlig'i orqali tebranish kuchayadi va o'ziga xos tembr va jarangdorlik xususiyatiga ega bo'ladi. To'rt organ – nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatlarining o'zaro aloqadagi faoliyatida musiqiy ohangda kuylanadigan ovoz – ashulachilik ovozi, shuningdek, mazkur to'rt apparatning hamjihatligi ashulachilik apparati deyiladi.

O'quvchilarni kuylaga qiziqтира olish ko'p jihatdan o'rganiladigan har bir mashq yoki qo'shiqning o'qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berilishiga bog'liq. Chunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal – xor ishi, asosan, o'qituvchi ovoziga taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shu boisdan ham o'qituvchining o'zi yoqimli kuylay olishi va bunga o'quvchilarni da'vat etib borishi shart. Bu, eng avvalo, ularga bir tovushni mayin ovozda cho'zib kuylashga o'rgatishdan boshlanadi.¹

Ovozlarni zo'riqtirmasdan kuylatish uchun ashula aytishni primar tovush (sol¹ – lya¹), ishchi diapozon (mi¹ – si¹) va umumiy diapozon (re¹ – si¹(do²)) larning me'yorida amal qilish zarur. Bolalar bosh rezanatoriga asoslangan fol tsetga yaqin bo'lgan ovozda kuylaydilar. Ovoz hosil qilish ustida ishlaganda, bu ularning yagona kuylash uslubi ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. O'quvchilarga kuylash uslubini berayotganda o'qituvchining o'zi aynan shu ovozda kuylashga harakat qilishi, xususan, erkak o'qituvchilar buni fal tset orqali ko'rsatib berishlari tavsiya etiladi.

Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o'z ovozini unga moslab baravarlashuvi sozlanishdir. Barcha bolalarning aniq musiqa tovushiga bir xilda sozlanishi bilan sof intonatsiyaga erishish mumkin. Bu muhim masala hisoblanadi, zeroiki sinfdagi vokal – xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unisonga erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab, bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish olib boriladi,

¹ Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. Ko'p tomlik. Toshkent. –1972 y.



“Lay – lak qo – ru lay – lak qor”

Ashulada esa u quyidagicha kuylanadi:


“La – yla – kqo – ru la – yla - kqor”.

Ashulachilikda unli tovushlarni to'g'ri shakllantira olish muhimdir. Bu ish vokal – xor materiallari – vokal mashqlari, mashq – qo'shiq (kichik qo'shiqcha) va qo'shiqlarni o'rganib kuylash jarayonida amalga oshiriladi. Shuni nazarda tutish lozimki, ona tili nutqimizda unli tovushdan ko'ra undosh tovushlar ko'proq ishlatiladi. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi ko'proq unli tovushlarni kuychan, cho'zib kuylash hisobiga undosh tovushlarni qisqa va aniq talaffuz etishga erishishdan iboratdir. Bunda tovushlarning nutq talaffuzini ashulachilik talaffuziga yaqinlashtirib kuylashga intilish lozim. Bu milliy talaffuz koloritini saqlagan holda kuylashda tovushlarni yaqin, yumshoq va “lo'nda” qilib talaffuz etishga yordam beradi.

Masalan, “A” tovushi nutqda ochiq, keng, kuylashda esa lablarga yaqin, yopiqli, biroq “o” ga yaqinlashtirib talaffuz etiladi. “O” tovushi ochiq va tomoqqa yaqin bo'lib, kuylashda lablarga yaqinlashtirib yopiqli va yumshoq talaffuz etiladi. “E” tovushi esa ochiq va yoyiq bo'lib, kuylashda yopiqli “lo'nda” qilib “E” ga yaqinlashtirib kuylanadi. Asosan, nutq talaffuzida ham “e” “e” tarzida eshitiladi (masalan, “terma”, “tekin” va hokazo).

“I” tovushi til oldi, yig'iq, ba`zan siqiq holda talaffuz etiladi. Uni yengil nafasda “u” ga yaqinlashtirib yengil va erkin kuylash lozim.

Ayniqsa, “a”, “e” va “i” tovushlarining erkin, yumshoq va labga yaqin kuylanishi vokal talaffuzi malakalarining ijobiy shakllanishi uchun muhimdir. Ularni vokal mashqlarida “do”, “de”, “di”, “mo”, “me”, “mi” kabi bo'g'inlarda kuylash foydalidir. “U” va “O” tovushlari yopiqli va yumshoq kuylash uchun o'ng'aydir. Shuning uchun bir tovushda “gul”, “du”, “lyu” kabi so'z va bo'g'inlarda mashq kuylash, ovozlarni yumshatib, umumiy sozga tushirish muhim rol o'ynaydi. “O” tovushi esa “u” dan ko'ra chuqur talaffuz etilishi sababli, uni “o” va “u” o'rtasida yaqinlashtirib, yumshoq talaffuz etish lozim.




Shuningdek, VI-VII sinfda undosh tovushlarni keskin, chaqqon va aniq talaffuz etib, ularni unli tovushlar pozitsiyasida kuylashga o'rgatib borish lozim. "Q", "X", "F" tovushlari nutqda tomoqqa yaqin talaffuz etilishi sababli kuylashda ularning talaffuz mexanizmini o'zgartirmay, yumshoq kuylashga erishish zarur.

Bolalarda vokal – xor mashqlarini o'stirish uchun turli mashqlarni kuylash katta ahamiyatga ega. Qo'shiq aytishni har darsda muntazam ravishda olib borish kerak. Ertalabki badan tarbiyaning turli mashqlari badanni "yayratib", kun bo'yi tetiklik hosil qilsa, xor mashqlari ovozni tobora ochib borib, butun darsni baland ruhda o'tkazadi. Shuning uchun darsni qo'shiq aytish mashqidan boshlash ma'qul. Bu mashq o'quvchilarni ma'lum darajada faollashtiradi, ularning diqqatini bir joyga to'playdi. Agar mashqlardan kuyning qiyin joylarini intonatsiya qilishni osonlashtirish maqsadi ko'zlanadigan bo'lsa, qo'shiq aytish mashqini dars o'rtasida (qo'shiq o'rgatishdan oldin) o'tkazish mumkin. Har qanday holda ham, darsda qo'shiq aytish mashqi uchun ajratiladigan vaqt 5-7 daqiqadan oshmasligi kerak.

Qo'shiq aytish mashqining foydali va maqsadga muvofiq bo'lishi uchun o'qituvchi uni o'tkazish metodikasini "ipidan ignasigacha" puxta o'ylab chiqishi, majburiy pauzalarga yo'l qo'ymaslik uchun mashqlarning oldindan tanlab, uning izchil bo'lishga erishishini o'ylab qo'yishi zarur. O'qituvchining o'zi mashqni yaxshi bilishi, uni sozlarda erkin ijro etib kuylay olishi kerak. O'qituvchining shaxsan mashq qilishi – shu mashqning bolalar tomonidan to'g'ri ijro etilishining garovidir.¹


VI-VII sinfda qo'shiq aytish mashqlari goh – goh va sistemali ravishda o'tkazilishi mumkin. Goh – goh o'tkaziladigan mashqlar, asosan, o'rganilayotgan qo'shiqning intonatsiya, zarb usuli kabi birorta murakkab tomoni yaxshilab o'zlashtirib olish uchun xizmat qiladi. Bunday mashqlar odatda bir – ikki darsda o'tkaziladi. Bu mashqlarni ashula o'qituvchisining o'zi tuzadi, keyinchalik qo'shiqning o'rganilishiga qarab mashqlarga ehtiyoj qolmaydi va o'qituvchi bunday mashqlarni kuylashni to'xtatadi.

¹ O'zbek fol klori ocherklari. Uch tomlik I tom. Toshkent. – 1988 y.



Sinfda zarur bo'lgan muayyan vokal – xor malakalarini egallash uchun tovush yo'nalishi, nafas olish, diktsiya kabi mashqlar har darsda uzoq vaqt (chorak, yarim yil va hatto yil) davomida sistemali ravishda kuylanadi.

Bu mashqlarning ko'pchiligi kompleksli mashq bo'lib, faqat bitta malakaning rivojlanishigagina emas, balki bir necha malakaning (masalan, nafas olish bilan tovush hosil qilishning, soz bilan ansambl “jo'rovozlik” va hokazolarning) bir yo'la rivoj topishiga yordamlashadi. Lekin o'qituvchi har bir mashqdan kuzatilgan asosiy maqsadni va ikkinchi darajali maqsadni aniqlab olishi kerak. Masalan, qo'shiq aytishdagi diktsiyani rivojlantirish mashqida o'quvchilarning asosiy diqqati so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz etishga qaratiladi. Shu bilan bir vaqtda o'qituvchi to'g'ri nafas olishni, to'g'ri tovush hosil qilishni, sof (tiniq) talaffuz va yaxshi jo'rovozlik hosil bo'lishini talab etib, kuzatib boradi. Yuqori sinflarda turli bo'g'inda aytiladigan, vokalizm deb ataladigan ovoz mashqlarini berish mumkin.



1.3. Xalq qo'shiqlarini o'rganishda musiqa savodiga e'tibor


Dars jarayonida o'quvchilarga musiqa haqida beriladigan barcha bilim va tushunchalar musiqa savodi doirasiga kiradi. Unga musiqaning o'ziga xos xususiyatlari, ifoda vositalari, janr turlari, tuzilishi, ijro uslublari, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari turlari va boshqalar kiradi.

Musiqa savodi mazmuni o'quvchilarning musiqa savodxonligini shakllantiradi va uning doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. Buning asosi yangi asarni o'rganish jarayonida bilib olingan har bir yangi tushuncha va iboralar keyingi darslarda doimiy ravishda qo'llanib borilishidan iboratdir. Shunday qilib musiqa savodi darsning ta'limiy funksiyasini bajaradi.¹

VII sinfda tonika va al teratsiya tushunchalarini bilib olgandan keyin, yevropa musiqasida keng yoyilgan asosiy ladlar – major va minor bilan bevosita tanishishga o'tish mumkin. Dastlab lad tuzilishini ko'rib chiqish va esda qoldirish shart emas; bolalarni eshitib olib, major va minor ladlarini ajrata bilishga o'rgatish muhimdir. Buni ayni bir kuyni turli ladlarda taqqoslab ko'rish yo'li bilan o'rganish osonroq bo'ladi. Har ikkala kuyni doskaga yozib qo'yiladi, o'qituvchi avval major ohangini, keyin minor ohangini kuylashni taklif qiladi.



¹ F.Karamatov. O'zbek xalqi musiqa merosi. Toshkent. – 1978 y.



U bolalarning diqqatini tovush yangrashining farqiga jalb etadi, ikkinchi holda kuyning birinchi holdagiga nisbatan mayinroq eshinishini uqdirib o'tadi. Kuylash pardaning o'zgarishi tufayli shunday eshinishiladi.

O'qituvchini ogohlantirib qo'yish niyatida shuni aytish kerak-ki, odatda, majorni shodiyona, xushchaqchaq lad sifatida, minorni esa hazin, mungli lad sifatida birmuncha soddalashtirib izohlanadi. Bunday tushuntirish uncha aniq emas, chunki jahon musiqa adabiyotida majorda yozilgan mungli musiqa va minorda yozilgan shodiyona musiqa namunalari ozmuncha emas. Shu sababli majorni va minorni ta'riflashda bularning lotin tilidagi ma'nosiga asoslanish ma'qul: dur (major) **qattiq**; moll (minor) esa **mayin** degan ma'noni bildiradi, shu tufayli major ladi tovushini qattiq, minor dali tovushini esa mayin tovush deb ta'riflash tavsiya etiladi.

O'qituvchi major va minor haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash uchun VI-VII sinf bolalariga juda xilma – xil mashqlarni berishi mumkin:

a) o'qituvchining ijro etadigan kuyini eshitib olib, uning qanday ladda yozilganini aniqlash;


b) doskaga ikki kuyni (majorda va minorda yozilgan kuylarni) yozib qo'yiladi; o'qituvchi bularning birini ijro etadi, o'quvchilar esa qaysi kuy va qanday ladda yozilganini aniqlaydilar;

v) majorda yoki minorda yozilgan hamda major bilan minorni taqqoslab ko'riladigan ohanglarni kuylash:

Major 

Minor 

III sinfdan boshlab lad tuyg'usini ustirish ustida olib boriladigan ish keyingi hamma sinflarda davom ettiriladi, o'quvchilar lad (pardalar) tuzilishi bilan tanishadilar, tegishli lادلarga xos asosiy intervallarni (katta va kichik tertsiyalarni)



aniqlaydilar, minor ladining turlari – tabiiy, garmonik va melodik ladlar bilan tanishadilar.


Ladlar tuzilishini o'rganish majordan boshlanadi. O'quvchilarga endi tanish bo'lgan Do major asosida majorning : $1m+1m+0,5m+1m+1m+1m+0,5m$ sxemasi bo'yicha tuzilishi oydinlashtiriladi. Bolalar yarim tonning turgan joyini (III va IV, VII va VIII bosqichlar o'rtasida turishini) aniqlab chiqadilar, so'ngra sol va re tovushlaridan boshlab major tovush qatorini sxemaga qarab mustaqil ravishda tuzadilar. Shu bilan birga, o'qituvchi tonlik (ohangdoshlik) ladning yuqori holati ekanligi haqidagi tushunchani izohlab beradi.

Amaliy mashq sifatida o'quvchilarga al teratsiya belgilaridan foydalanib, barcha tovushlardan major tovush qatorlarini tuzish va ikki – uch belgigacha bo'lgan tonlikni puxta bilib olish topshirig'i beriladi. Ular major lad (parda) tuzilishini yaxshi o'zlashtirganlaridan keyin, tabiiy minor ladini Lya minor misolida $1\bar{m}+0,5m+1+1\bar{m}+0,5+1m+1m$ sxemasi bo'yicha ta'riflab, shu ladning tuzilish printsiplarini o'rganishga o'tish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning tabiiy minorni o'zlashtirishlariga qarab ularni garmonik va melodik minor bilan asta – sekin tanishtira boradi. U har qanday yangi materialni ko'p sonli, asosan qo'shiqqa doir mashqlar, shuningdek sinfda va uyda bajariladigan bir qancha yozma topshiriqlar asosida mustahkamlab boradi. Biz oz keyinroq o'quvchilarga major va minor tonliklarining yondoshligi va nomdoshligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Boshlang'ich sinfdanoq bolalar mashqni yoki qo'shiqni boshlash oldidan qo'shiq jo'rsiz ijro etiladigan paytda o'qituvchining ovozi bilan uning sozini – uchtovushlikni ifodalashga o'rganib qolishadi o'quvchilar shu uchtovushlikni birgalashib takrorlashadi, undan keyin mashqni kuylashadi.

Yuqori sinflarda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan bir tovush – tonikadan boshlab mustaqil suratda sozni kuylashadi. Shu bilan birga, avval boshda ular major uchtovushligini. Keyin minor uchtovushligini ovoz sozi bilan ifodalashga o'rganadilar. Shunday qilib, ularda intervallarni – katta va kichik sekundalar hamda tertsiyalarni talaffuz qilishga oid muayyan musiqa tajribasi



yig'ila boradi. Bundan tashqari, qo'shiqlarda boshqa intervallar ham uchraydi. Shu sababdan intervallarni, ularning tuzilish xususiyatlarini o'rganishga kirishish mumkin. O'qituvchi interval so'zi balandlik jihatidan tovushlar o'rtasidagi oraliqni bildirishini tushuntirib beradi. Bu ishda quyidagi mashq ma'lum darajada yordam berishi mumkin.

1-Ovozlar

2-Ovozlar


va hokazo

Ushbu mashq quyidagi tarzda bajariladi: sinf ikki guruhga bo'linadi: ulardan biri tonika tovushni, ikkinchisi esa gammani takrorlaydi. Tovushlar o'rtasidagi oraliq avval kengayadi, so'ngra, aksincha, qisqaradi. Bu mashqni boshqachasiga ham bajarish mumkin: pedagog asosiy tovushni chaladi yoki kuylaydi, sinf esa gammani kuylab, xor bilan intervallar "tuzadi".

V sinfda bolalar prima, sekunda va tertsiyaning tuzilishi bilan, VI sinfda kvarta, kvinta va oktavaning tuzilishi bilan, VII sinfda – seksta va septimaning tuzilishi bilan tanishadilar.


Sekunda intervali o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan, katta va kichik sekundalardan tashkil topgan Do major gammasi misolida o'rgatiladi. O'quvchilar musiqada tovushlar o'rtasidagi oraliqning **ton** va **yarim tonlar** bilan o'rganishini bilganliklari uchun pedagog, kichik sekunda yarim tondan, katta sekunda esa butun tondan iborat, deb ta'riflaydi.¹

¹ Boychechak. Bolalar fol klori. Toshkent. – 1984 y.



O'quvchilar tertsiyani sozlash tariqasida bilishadigan va eshitib olib kuylashadigan uchtovushlik asosida o'rganishadi. O'qituvchi uchtovushlik turlicha eshutiladigan ikki tertsiyadan iborat ekanligini izohlab beradi. U uchtovushlikni doskaga yozib qo'ygach, o'quvchilar bilan birgalikda major uchtovushligida tertsiyaning nechta butun ton va nechta yarim tondan tashkil topganini aniqlaydi. Birinchi tertsiya ikki tondan, ikkinchi tertsiya bir yarim tondan iborat ekanligiga ishonch hosil qilishgach, o'qituvchi, tertsiyalar sekundalar kabi katta va kichik bo'lishlari mumkin, deb xulosa chiqaradi.


Shuningdek, kvinta bilan ham uchtovushlik asosida tanishiladi. O'quvchilarga uchtovushlikning eng chetdagi tovushlarini kuylash taklif etiladi. Ana shu tovushlar o'rtasidagi oraliq kvintadir.



Oktava ham shu tarzda, ya'ni gamma asosida yoki juftlama asosiy tonga ega bo'lgan uchtovushlik asosida o'rganiladi.

Tanish qo'shiqlar intervallar ustida olib borilayotgan ishda yordam beradi. Pedagog bolalarga biror qo'shiqni esga olishni taklif etadi, uni doskaga yozib qo'yadi va qo'shiqning qaysi intervaldan boshlanishini aniqlab, shu intervalni esda tutishni va uni qo'shiqning boshlanishi sifatida kuylashni talab qiladi. Chunonchi, kvarta intervali ko'pgina tantanali qo'shiqlarga, masalan, "O'zbekiston Respublikasi madhiyasi"ga xos fazilatdir.

O'quvchilar kvarta intervali bilan tanishtirilar ekan, uning yangrashiga xos bo'lgan da'vat – chaqiriq va qizg'inlik xususiyatini uqtirib o'tish, shuning uchun ham, odatda, xitob, buyruq va undalma ohangini ifodalash zarur bo'lgan qo'shiqlarning boshlanishida kvarta intervalidan foydalanishini gapirib o'tish zarur.




Intervallarni izohlab berishda interval nomlarining matematik ma'nosini bolalarga tushuntirish va raqamli yozuvini ko'rsatish kerak. Masalan, lotincha sekunda so'zi ikkinchi degan ma'noni bildiradi, ya'ni u ikki yonma – yon tovushlar o'rtasidagi oraliqni belgilaydi va 2 raqami bilan ko'rsatiladi. Tertsiya – uchinchi demakdir; u uch yonma – yon tovush (do, re, mi) o'rtasidagi oraliqni qamrab oladi va 3 raqami bilan ko'rsatiladi. Shu intervalning katta yoki kichik interval ekanligini ko'rsatadigan so'zning birinchi bo'g'ini ma'lum raqamdan keyin yoziladi: masalan, kat. 2 – katta sekunda, kich. 3 – kichik tertsiya. Raqamli yozuvni bilish diktantlar yozish paytida intervallar yozuvini osonlashtirishga yordam beradi.

Intervallarni o'rganish davomida o'qituvchi bolalardan nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, shu bilimlarni amalda qo'llana bilish ko'nikmalarini ham egallashni talab etadi. Ular berilgan notadan boshlab har bir yangi intervalni tuza bilishlari bilangina kifoyalaniq qolmasdan, uni pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga qarata kuylashni ham, dastlab eshitib olib melodik bayon qilishni. So'ngra garmonik bayon qilishni ham, topa bilishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa savodi ashula darsining muhim bo'limlaridan biri bo'lib hisoblanadi va u o'quvchilarning musiqa ta'limida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Musiqa savodi musiqaga uning ifoda vositalariga ongli munosabatda tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushuntirib olishga yordam beradi, eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga xor ovozlarni aniq talaffuz qilishga va xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o'sishiga asoslanishi kerak. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda ham, musiqa savodini o'rganish jarayonida ham eshitish qobiliyati ritm sezgisi taraqqiy etadi.

Asosiy talab – olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llanishi va savod o'rganishi bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir – biriga chambarchas bog'lab olib borishdan iboratdir.



II bob. Yuqori sinflarda an`anaviy xalq qo`shiqlaridan foydalanish

2.1. An`anaviy xalq musiqa ijodining janrlar tarkibi

Janrlar tarkibi bo`yicha an`anaviy xalq ijodi dunyo xalqlari ijodi taraqqiyotida alohida o`rin tutadi. Bunday rang – baranglik esa, bir tomondan, uning boshqa xalqlar ijodi bilan yaqindan munosabatda ekanligini ko`rsatsa, ikkinchi tomondan, uzoq tarixga ega ekanligi va o`zining janrlar tarkibi kengayib borayotganligidan dalolat beradi.


An`anaviy xalq ijodi qadimda umumturkiy fol klor tarkibida jonli yaratilish va yashash jarayonini o`z boshidan kechirgan. Xuddi mana shu jarayonda uning janrlar tarkibi boshqa turkiy xalqlar fol kloriga bilan ma`lum darajada mushtaraklik kasb etadi. Biroq an`anaviy xalq ijodi bilan boshqa turkiy xalqlar ijodi janrlar tarkibidagi bunday mushtaraklik turkiy xalqlar ijodi janrlari tarkibi mutloq bir xil degan xulosani bildirmaydi. Turkiy xalqlar ijodi janrlar tarkibidagi mushtaraklik bu xalqlarning bir xil ijtimoiy – iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy va madaniy taraqqiyot bosqichlarini bosib o`tganliklarini tasdiqlaydi.

Janrlarning murakkab o`zaro munosabati, bu munosabatning ko`p qirrali ekanligini nazarda tutib, biz o`zbek fol kloriga janrlari tarkibini tayin etishda an`anaviy xalq og`zaki ijodining hozirgi holati, unda mavjud bo`lgan janrlardan kelib chiqib ish ko`rildi.

“Janr” san`atining barcha turlarida keng qo`llanuvchi tushuncha. Bu tushunchaning lug`aviy hamda istilohiy ma`nolari haqida hozirga qadar juda ko`p talqinlar yozildi va u o`ziga xos hayotiy qamrov, yaxlit poetik tizim va tasvir tarziga ega bo`lgan, tarixan shakllanib, doim rivojlanib boruvchi asar tiplari ma`nosida tushuniladi.¹

Badiiy so`z san`atining og`zaki va yozma shakllari mavjud. Adabiyotshunoslikda ular yozma badiiy adabiyot hamda og`zaki badiiy adabiyot yoki qisqa qilib fol klor atamallari bilan yuritiladi. Badiiy so`z san`atining bu ikki


¹ Namangan yor – yori. To`plovchi A.Sobirov. Namangan – 1995 y.



tipi o'zaro faqat shakliy xossalar jihatidagina emas, balki voqelikni aks ettirish tarzi va usullari, shuningdek, janrlar tarkibining turlichaligi bilan ham keskin farqlanib turadi.

Adabiyotshunoslikda ham, fol klorshunoslikda ham "janr" atamasi bir xil faollikda qo'llaniladi. Biroq har ikki sohada ham "janr" atamasining o'z ma'no doirasi bor. Bunday ayirma esa bevosita janrlarning yuzaga kelishi, yashash tarzi, tarqalishi, hayotiy yo'nalganligi va ijro usuli bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Ko'p hollarda mavjud ana shunday ayirmalar hisobga olinmay, fol klorga oid janrlar adabiyotshunoslikdagi janr tushunchasi doirasida tasnif va tadqiq etiladi. Ana shunday holatlardan ikkitasi xususida to'xtalib o'tamiz.

I. Ma'lumki, janrlar o'zlarining juda ko'p ichki va tashqi jihatlari bilan o'zaro birikib, nisbatan kattaroq birliklarni tashkil etadilar. Bunday birliklar esa adabiyotshunoslikda ham, fol klorshunoslikda ham "tur" atamasi bilan yuritiladi. Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) zamonidan beri adabiy turlar uchta deb kelinadi. Shuning ta'sirida xalq ijodiyoti ham xalq ijodi (fol klor) janrlarini uch adabiy tur doirasida o'rganib keladi. "Adabiy tur" atamasini xalq ijodi janrlariga nisbatan qo'llash juda ko'p janrlarni o'rganishga qo'l kelsa ham, biroq fol klorga xos janrlar tabiatini, ularning yuzaga kelish, tarqalish va rivojlanish jarayonlarini to'g'ri yoritishga imkon bermaydi. Shu boisdan fol kloristika adabiy turlardan uchtasini – epos, lirika va dramani adabiyotshunoslik bilan baham ko'rsa ham, ammo bu uch adabiy tur doirasiga sig'maydigan ya'ni xalq ijodiga xos maqol, topishmoq, turli xildagi qo'shiqlar, oddiy o'tirish olqishlari, qarg'ish, so'kish va boshqa iboralar kabi janrlarni alohida tur sifatida ajratib tekshirilmog'i lozim. Ana shunda an'anaviy xalq ijodining janrlar tarkibi nisbatan to'liq o'rganiladi. Yuzaki qaraganda, xalq ijodi janrlari tarkibini uch adabiy tur doirasida yoki undan kengroq doirada o'rganish qat'iy anahamiyatga molik emasday bo'lib ko'rinadi. Ammo masalaga jiddiyroq yondoshilsa, butunlay boshqacha manzara ko'zga tashlanadi. Epos, lirika va dramatik turga mansub bo'lmagan juda ko'p xalq ijodi janrlari hozirga qadar tadqiqotlar ob'ekti bo'lishdan chetda qolib kelmoqda.



Demak, an`anaviy xalq ijodi janrlar tarkibini quyidagi turlarga ajratib o`rganish maqbuldir:

1. Epos: afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, terma, tarixiy qo`shiq, latifa, loflar.

2. Lirika: marosim qo`shiqlari, mehnat qo`shiqlari, sevgi – muhabbat qo`shiqlari, laparlar.

3. Drama: og`zaki drama, kulgi – hikoya, qo`g`irchoqbozlik, askiya.

4. Maxsus tur: oddiy o`tirish olqishlari, qarg`ish, so`kish, maqol, matal, topishmoq va boshqa xildagi yumuq iboralar.

II. Xalq ijodi janrlarini belgilashda yozma adabiyot janrlarini tayinlashdagidek faqat ikki jihat – o`ziga xos hayotiy qamrov va yaxlit poetik tizim jihatidan emas, balki to`rt belgiga qarab ajratiladi. Bular: yaxlit poetik tizim, maishiy yo`nalganlik, ijro shakli va musiqa bilan aloqadorlik kabilar.

Demak, xalq ijodi janrlari ikki belgida (hayotiy qamrov darajasi va yaxlit poetik sistema) adabiy janrlar bilan bir xil asoslarda tayinlanish jihatidan mos kelsalar ham, biroq maishiy yo`nalganlik, ijro shakli va musiqa bilan bog`liqligi jihatidan tayinlanishiga ko`ra adabiy janrlardan farqlanib turadilar. Xalq ijodi janrlarini tayinlashdagi keyingi uch belgi tadqiqotchilar tomonidan atayin o`ylab chiqarilgan va zo`rma – zo`raki xalq ijodini yozma adabiyotdan farqlash uchun qo`yiladigan ortiqcha belgilar emas. Ular an`anaviy xalq janrining bevosita yuzaga kelish, yashash va tarqalish shart – sharoitlaridan kelib chiqqan belgilardir. Birgina xalq ijodi janrlaridagi maishiy yo`nalganlikni olib ko`raylik. Yozma adabiyotdagi janrlarning izchil maishiy yo`nalishi, boshqacha aytganda, konkret ijro o`rni yo`q.

Xalq ijodi janrlari uchun maishiy yo`nalganlik ana shunday muhim xossalardan biri va eng yetakchisi hisoblanadi. Maishiy yo`nalganlik jihatidan an`anaviy xalq ijodi:

a) marosim bilan bog`liq; b) marosim bilan bog`liq bo`lmagan xalq ijodi janrlariga bo`linadi.

“Marosim fol klori” tushunchasi tarixan o`zgarib boruvchi tushuncha bo`lib, davrlar o`tishi natijasida uning janrlar tarkibi o`zgarib goh boyib, goh kamayib


turadi. Marosim fol klori janrlar tarkibidagi bunday o'zgarishlar bevosita ijtimoiy hayot taqazosiga ko'ra ro'y beradi. Chunki turmushda yangi – yangi marosim va rasm – rusmlarning yuzaga kelishi, yangi turmush talablariga javob bera olmaydigan marosimlarning iste'moldan tushib qolishi va unutilishi marosim fol klori janrlar tarkibini doim o'zgartirib turadi.

Ba'zi bir marosimlarning iste'moldan tushib qolishiga olib keluvchi muhim omillardan biri fan va texnika yutuqlarining ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq joriy etilishi, moddiy – madaniy hayotning o'sishi hisoblanadi. Birgina misol. Qadimda g'alla qo'lda o'rilgan. O'rimni tez va sifatli amalga oshirishga undovchi juda ko'p marosimlar xalq o'rtasida iste'molda bo'lgan. Keyinchalik g'alla kombaynlar bilan o'rib – yig'ib olinishi tufayli o'rim oxirida o'tkazuvchi “oblo baraka” marosimiga ehtiyoj yo'qoldi, natijada ana shu marosim va unda ijro etiluvchi xalq ijodi (fol klor) janrining o'zi ham tamoman unutilib ketdi.

Xalq ijodi janrlarining marosimga munosabati masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, tarixan marosimdan xoli xalq ijodi – fol klor janrlari juda kam bo'lgan. Hattoki, ertak, doston kabi epik janrlar ham dastlab marosim bilan bog'liq holda yashagan. Ular maxsus joylarda, belgilangan vaqtlarda, ma'lum sharoitda, muayyan auditoriyada o'ziga xos tarzda aytilgan. Hozirgi kunda ertakni aytish vaqti xususidagi taqiqlarning saqlanib qolganligi yuqoridagi fikrimizni bir oz bo'lsa – da tasdiqlaydi. Keyinchalik bu ikki janrning ijrosi bilan bog'liq talablarning asta – sekin yo'qolishi ularning marosim bilan aloqadorliklarini tamoman yo'qotdi va hayotiy qo'llanish doiralarini kengaytirdi.¹

Bolalar ijodiga mansub juda ko'p janrlar tarixan marosim fol klori tarkibida yuzaga kelgan. Biroq turmushda o'sha marosimlarning so'nishi va iste'moldan chiqib ketishi ular tartibidagi xalq ijodi materialining marosim doirasidan chiqib ketishiga sabab bo'lgan. “Boychechak”, “Laylak keldi”, “Oq terakmi ko'k terak”, “Eshak mindi” kabi janrlar ana shular jumlasidandir.

¹ Alisher Navoiy. Xamsa. O'zbekiston fanlar akademiyasi. Toshkent. – 1958 y.



Hozir o'zbek marosim fol kloriga tarkibi asosan ikki guruhga mansub janrlardan tashkil topgan. Birinchi guruh mavsum bilan bog'liq marosimlar, ikkinchi guruh maishiy turmush bilan bog'liq marosimlar fol kloriga iborat.

O'zbek mavsum – marosim fol kloriga ikki tsikllik marosimlardan tashkil topgan, ya'ni o'zbek mavsum – marosim fol kloriga asosan yilning ikki – bahor va yoz fasllari bilan bog'liq holda ijro etiladi, xolos. O'zbek mavsum – marosim fol kloriga janrlari ijro usuli, maishiy yo'nalganligi jihatdan ikki qismga bo'linadilar:

a) faqat mavsum bilan bog'liq va asosan mavsumni madh etuvchi marosimlar fol kloriga. Bunga “Navro'z”, “Lola sayli”, “Sumalak” qo'shiqlari mansub;

b) kishilarning mavsum bilan bog'liq faoliyati va mehnat turlari bilan bog'liq marosimlar fol kloriga janrlari. “Qo'li qo'shig'i”, “Sust xotin”, “Choymomo”, “Oblo baraka”, “Yo haydar” kabi marosimlar fol kloriga ana shular jumlasidandir.


O'zbeklar o'rtasida ham qadimda to'rt tsikllik, ya'ni yilning to'rt fasli bilan bog'liq marosimlar fol kloriga mavjud bo'lgan. Hozir ham xalqimiz o'rtasida dastlabki qor yoqqanda yoki qor haddan ortiq yoqqanda uni to'xtatish uchun o'tkaziladigan marosimlar qisman saqlanib qolgan, ammo ana shu marosimlar tarkibida ijro etiladigan xalq ijodi janrlari deyarli unutilib ketgan.

Kishilarning maishiy turmushi bilan bog'liq marosimlar o'z navbatida uch qismga bo'linadi:

I. So'z magiyasi bilan bog'liq marosimlar. Bunday marosimlar tabiatida so'zning sehr – jodu qudrati yetakchilik qiladi. Bunday marosimlar janrlariga avrash va afsunlar, badik, burey – burey, pinna olqishlar mansub.

II. Insonning tug'ilishi va balog'at yoshi bilan bog'liq marosimlar. Bu guruhga mansub marosim fol kloriga marosimning o'tkazilish o'rnini, shart – sharoiti va ijro xarakteriga ko'ra ikki xildir:

a) chaqaloq beshikka solish va beshikdan yechib olishda aytiladigan qo'shiqlar. Bunday qo'shiqlar kattalar tomonidan maxsus marosimlar jo'rligida aytiladi;



b) bolaning o'spirinlik davriga o'tishi va balog'at yoshiga yetganligi maxsus marosimlar orqali amalga oshiriladi. Bunday marosimlar xalq o'rtasida umumiy "to'y" atamasi bilan yuritiladi. To'y marosimlari o'z tabiati, maishiy yo'nalganligi jihatidan to'rt guruhga bo'linadi. Bular:

1. Beshik to'ylari marosimi. Bunday to'yda chaqaloq birinchi marta beshikka solinadi va ana shu paytda "Beshik egasi keldi, kuchuklari qoch-qoch" tipidagi qo'shiqlar kuylanadi.


2. Sunnat to'ylari marosimi. To'yning bu tipi o'z genezisi bilan ibtidoiy kishilardagi qadimiy initsiatsiya marosimiga borib tarqaladi. Sunnat to'ylarida "Jar", "Quloq cho'zma" kabi fol klor janrlari ijro etiladi.

3. Fotiha to'ylari. Bunday to'ylarda ikki yoshning taqdiri ulanadi va ularda asosan olqishlar aytiladi.

4. Nikoh to'ylari. Nikoh to'ylarida ikki yosh taqdirining ulanishi jamiyat o'rtasida rasman e'lon qilinadi. To'yning bu xilida ijro etiladigan xalq ijodi janrlari ham xilma – xildir. Chunki nikoh to'ylari o'z tarkibiga juda ko'p marosimlarni izchil biriktirib olgan. Mana shuning uchun ham nikoh to'ylari arafasida, ammo nikoh to'ylari tarkibiga qo'shiladigan lapar kechalari uyushtiriladi va bu kechada yigit – qizlar o'zaro lapar aytishadilar. Qizni uzatish kechasi esa "O'lan", "Yor - yor", "Kelin salom", "Olqish" kabi janrlar ijro etiladi. Nikoh to'ylaridan keyinroq esa ayrim joylarda "Kuyov salom"lar aytiladiki, bu janr ijrosi bilan bog'liq marosim ham bevosita nikoh to'ylari kompleksi tarkibida olib qaraladi.

III. Kishi vafoti bilan bog'liq motam marosimlari fol kloriga. Bunday marosim yuqoridagi marosimlardan farqli o'laroq inson irodasi bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni tabiiy holatda o'tkaziladigan. Motam marosimi o'tayotgan vaqtda yoig'ilar, o'lim yor – yorlari ijro etilsa, marosim rasmiy o'tkazilgach, yo'qlov yig'ilari ijro etiladi.

Hozirgi holati jihatidan hech qanday marosim bilan bog'liq bo'lmagan fol klor janrlari tizimi juda katta. Biroq bu tizimni tashkil etuvchi janrlar o'zlarining poetik tabiati, hayotiy qamrov darajali, maishiy yo'nalganligi hamda ijro shakllarining xilma – xilligi bilan quyidagicha guruhlarga bo'linadi:



1. Hech qanday maxsus marosim paytida ijro etilmasa-da, biroq muayyan xalqning urq-odatlar bilan bog'liq holda ijro etiladigan xalq ijodi janrlari. Bularga turli xildagi irim – sirimlar bilan bog'liq aytimlar, oddiy o'tirish va safar fotihalari (olqishlari), so'kish, qarg'ish kabilar mansub.


2. Xalq qo'shiqlari. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, folkloristikada “qo'shiq” iborasi adabiyotshunoslikdagi “lirika”, ya'ni adabiy tur ma'nosida qo'llaniladi. An'anaviy xalq qo'shiqlari janr nuqtai nazaridan rang – barang bo'lib, ularning poetik tabiati va maishiy yo'nalganligi turli – tuman, ijro usullari jihatidan esa takrorlanmasdir. Binobarin, an'anaviy xalq qo'shiqlarini quyidagicha mustaqil janrlarga ajratib o'rganish lozim:

1. Mehnat qo'shiqlari. Bunday qo'shiqlar xalq lirikasining eng qadimiy janri hisoblanadi. Inson o'zligini mehnat tufayli kashf etganidek, ana shu mehnat uning qo'shiqlarida ham o'z aksini topgan. Mehnat qo'shiqlari tarixan maxsus marosimlar vositasida ijro etilgan. Chunki mehnat jarayonining har bir uzvi o'ziga xos rusumlar bilan boshlanib, o'ziga xos rusumlar orqali yakunlangan. Keyinchalik mehnat jarayonidagi bunday marosimlilik asta – sekin yo'qolib, faqat ayrim uzvlardagina saqlanib qoldi. Masalan, dalaga dastlabki qo'sh chiqarishda o'tkaziladigan “shox moylar” marosimi yoki o'rimni yakunlashdagi “oblo baraka” marosimi va ularda aytiluvchi aytimlar.¹

Inson hayotida mehnatning turi beqiyos darajada ko'p bo'lganligi uchun ana shu mehnat turlari bilan bog'liq holda ijro etiladigan qo'shiqlar ham tabiiy ko'pdir. Ular: a) dehqonchilik bilan bog'liq: qo'sh qo'shig'i, o'rim qo'shig'i, oblo baraka, ho'p – mayda, yorg'ichoq qo'shig'i; b) chorvachilik bilan bog'liq: sog'im qo'shiqlari (xo'sh-xo'sh, turey – turey, churey – churey); v) hunarmandchilik bilan bog'liq: charx qo'shiqlari, bo'zchi qo'shiqlari, gilam to'quvchilar qo'shiqlari va hokazo.

2. Lirik qo'shiqlar. Qo'shiqlarning bu turi xalq o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, ularga xos muhim xususiyatlardan biri maxsus ijro o'rniga ega emaslikdir. Chunki sevgi qo'shiqlari qiz yoki yigit tomonidan yolg'izlikda ham, o'tirishlar va

¹ F.Karamatov. O'zbekskaya narodnaya instrumental naya muzo'ka. Toshkent.– 1972 y.



to'ylarda ham ijro etilishi mumkin. Ammo shunda ham ular maishiy yo'nalganlik va ijro o'rni jihatidan marosim tarkibidan alohida ajralib turadilar. Mavzu jihatdan sevgi qo'shiqlari ikki katta guruhga bo'linadilar:


- a) visol, orzu-umid, vafo-sadoqatni tarannum etuvchi qo'shiqlar;
- b) ayriliq, hijron nolalarini, erishilmagan visol armonlarini kuylovchi qo'shiqlar.

3. Lirik turga mansub fol klor – xalq ijodi janrlaridan yana biri lapardir. Lapar tarixan to'y marosimi tarkibiga aloqador bo'lib, faqat asrimiz boshlariga kelib asta – sekin o'zining marosim bilan aloqadorlik hususiyatini yo'qota boshladi. Lapar nikoh to'ylarida, xususan, qiz uzatishdan bir necha kun oldin bo'lajak kelin, uning dugonalari hamda kuyov tomonidan kelgan yigitlar bilan birgalikda o'tkaziladigan bazm kechasida ijro etilgan. Ijroning bunday harakteri laparni dramatik turga yaqinlashtirib qo'yadi, ammo qo'shiqlarning mazmuni asosan lirik harakterga egaligi sababli ular lirik tur tarkibiga kiritiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan janrlar. Ularning o'zaro guruhlanishi, u yoki bu janrning muayyan guruhda tutgan o'rni masalasi doimiy kuzatishni talab etuvchi masaladir. Chunki xalq ijodi janrlarining uzluksiz rivojlanish harakteri hamda maishiy yo'nalganligi istalgan milliy fol klor janrlar tarkibining doimiy o'zgarib borishini tasdiqlaydi.

Bas, shunday ekan, yuqorida biz sanab o'tgan janrlar o'zbek fol kloriga janrlari tarkibining bugungi holatini ifodalaydi, xolos.

Binobarin, davrlar o'tishi bilan janrlar tarkibi, ularning struktural hamda funktsional tabiatida keskin o'zgarishlar yuz berishi tabiiydir. Yuz bergan o'zgarishlarni kuzatib borish hamda an'anaviy xalq ijodi janrlar tarkibiga ana shunday o'zgarishlarning ta'sirini qayd etish fol klorshunosligimizning doimiy vazifasi bo'lib qolaveradi.



2.2. O'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalq qo'shiqlarining ahamiyati


Xalq qo'shiqlari xalq va millatning ma'naviy musiqiy boyligi hisoblanadi. Har bir xalq asarining tarixi, uning an'anaviy ijrosi, xalq urf – odatlari va boshqa qadriyatlari bilan bog'lanishini va qaysi janrga mansubligini bilib ijro etish xamda undan axloqiy xulosalar chiqarib olish madaniyatini egallash o'quvchilarning xalq qo'shiqlari orqali ma'naviy-ahloqiy tarbiyalanganligini ko'rsatuvchi muxim omil xisoblanadi.

Buyuk qomusiy olim Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi ruxiyati, umuman ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq yekanligini, musiqa inson kayfiyatini o'zgartirishdan tashqari uning butunlay ma'naviy qiyofasiga tasir yetishini psixologik va yestetik jihatdan asoslab bergan. Musiqaning inson xulqini mukammal qilishi xaqidagi fikr musiqiy yestetik tafakkur tarixidagi juda katta yangilik bo'lib, unda musiqaning tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyatiga aloxida e'tibor berilgan.

Xalq qo'shiqlarida berilgan fikrlar va oxanglarda qaror topgan da'vatlar, nashhatlar ko'rsatmalar uning asrlar davomida orttirgan tajribasi natijasida qayta tekshirib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalari maxsulidir. Xalqning har bir aytgan gapi "o'q" va uni uqib olmagan kishi hayotda pand yoyishi tabiiydir.

Ma'naviy – axloqiy tushunchalarni bilib olish kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikmalar va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

O'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazgan davri davomida sinf, maktab jamoasida o'z o'rnini topa olishida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Aniq mazmun asosida o'tkaziladigan musiqa darslari sinfdan tashqari musiqiy tarbiya va umumiy tarzidagi musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.



VI-VII sinfda musiqa darslari haqiqiy ta'lim – tarbiya vositasiga aylanishida o'qituvchisining bilimi, iqtidori, jonkuyarligi, targ'ibotchiligi, mehribonligi, maslahatgo'yiligi yetakchi ahamiyatga ega.

Xalq musiqasining buyuk qudrati shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga kirib, hissiyotlarini junbushga keltira oladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab to'rlarining eng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvati zahiralari saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltira oladi.¹

VI-VII sinf o'quvchisi shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa, xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am – alamlari, orzu umidlarining silsilasidan yaralgan xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni beqiyosdir.


Xalq qo'shiqlari an'anaviy xalqining avloddan – avlodga o'tib qon – qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola – qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga erishadi, qo'shilishib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga yetaklab ketadi.

Xalq qo'shiqlari faqat estetik joziba odami bo'libgina qolmay o'ziga xos katta bir ta'lim – tarbiya quroli hamdir. Chunki inson his – hayajonining zamirida ma'naviy – axloqiy tushunchalar, hislar, xulosalar ham yotadi.

Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy musiqaning xilma – xilligi inson ma'naviy ehtiyojlarining ifodasi ekanligini, ikkinchidan, estetik lazzat va huzur orqali inson, o'z navbatida, ma'naviy barkamol bo'lishini ta'kidlaydi. Musiqa misolida Jomiy e'tirof etadiki, “Ruhga lazzat biror narsani tushunib, bilib olmoqdan keladi. Nimaiki ruh tomonidan tez idrok etilsa va uni hayratga, chuqur o'ylashga majbur etsa, u eng lazzatli hisoblanadi”.

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega ekanligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun o'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida

¹ Xorazm xalq qo'shiqlaridan namunalar. Nashrga tayyorlovchi J.Qobulniyozov. Toshkent. - 1965 y.




amalga oshirilayotgan milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi ham o'sib kelayotgan yosh avlodni o'zbek musiqiy merosi va musiqa madaniyatiga vorislik qila oladigan jahon musiqa madaniyatini tushuna oladigan ohanglardagi mavzu ma'noni qalban his etib idrok eta oladigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgandir.

Ma'lumki, boshqa millat musiqasi o'zbek musiqasi, o'zbek musiqasi esa boshqa millat musiqasi bo'la olmaydi. Chunki har bir millat musiqa asarlarining ohang tuzilish qonuniyatlari mavjudki, bu qonuniyatlar har bir millatning tarixan rivojlanib kelayotgan milliy ma'naviyatiga asoslangandir.

An'anaviy xalq qo'shiqlari o'zining musiqiy ravonligi va ritmik ko'rinishi bilan xalq og'zaki ijodining professional ko'rinishi bo'lgan ko'p qismli vokal cholg'u asari bo'lmish maqomlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Xalq musiqa ijodi, fol klorning boshqa turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, sodda, nihoyatda ixcham va mukammal shakllarga, juda ko'p tarixiy dalillarga asoslangan qadimiy san'atdir. Xalq qo'shiqlari ohang jozibasi bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. Xalqimizning milliy musiqa san'ati nihoyatda ko'hna bo'lib, u serqirra yo'nalishga ega. Buni birgina Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Surxondaryo, Namangan va boshqa viloyatlarning ijrochilik maktablarida ko'ra olishimiz mumkin.

Musiqa san'atining inson ruhiga kuchli emotsional ta'sirini yurtboshimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Davlat konservatoriyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida ham ko'ra olishimiz mumkin. "Odamzod yozish – chizishni, o'qishni bilmasligi mumkin lekin shubha yo'qki go'zal kuy, ohang va taronalarning hayotbaxsh ta'sirini har qanday vaziyatda ham sezadi", - degan edi. Shuning uchun ham xalq musiqasi insonga hamisha hamroh, uning tuyg'ulariga, ruhiyatiga qanotdir. Mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy o'zining "Tarbiya to'g'risida" nomli asarida musiqaning tarbiyaviy imkoniyati to'g'risida to'xtalib "musiqa tufayli insonda oliyjanoblik, ulug'vorlik, go'zallik tashqi dunyodagi emas, balki uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risida tasavvur yuzaga keladi. Musiqa o'z – o'zini tarbiyalashning qudratli vositasidir", - degan edi. Musiqa darslarida o'zbek halq musiqa merosini o'rganishga bag'ishlangan darslar yuksak metodik




jihtadan qiziqarli, mazmunli tashkil etilsa, uning bolalar dunyosiga ta'sirchanligi shunchalik kuchli bo'ladi. Mustaqillik yillari YuNESKO va yurtboshimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida 1997 yildan boshlab har ikki yilda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqiy anjumani va "Boysun bahori" xalqaro fol klor festivallarining yurtimizda bo'lib o'tishi, insoniyatning og'zaki va an'anaviy musiqa merosimiz durdonalariga alohida e'tibor berayotganligidan guvog'lik beradi.

Musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda an'anaviy xalq qo'shiqlarining o'rni ahamiyatli ekanligi ulkandir. Chunki an'anaviy xalq qo'shiqlari xalqning jonli umuminsoniy qadriyatlaridir. An'anaviy xalq qo'shiqlarini musiqa madaniyati darslari jarayonida atroflicha o'rganish shu kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biridir.

Umumta'lim maktablarining VI-VII sinflarida musiqa tarbiyasini olib borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni o'z darsiga, xalq qo'shiqlariga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turadi. Maktabda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytish, musiqa tinglashga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish va moyillik, yoshlarning asta – sekin san'atga bo'lgan ijobiy munosabatlari va qolaversa ehtiyojlarining tarbiyalanib, shakllanib borishida muhim o'rin tutadi.

Musiqa darsi o'z tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Uni rang – barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. Bolalarni san'atga o'rgatish murakkab jarayon. Hamma murakkablik shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas.

Bu o'rinda VI-VII sinfda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning orombaxsh ta'siridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Xalq qo'shiqlarini ijro va idrok etishda his – tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, to'yinish va zavq olish ham shunchalik ongli va chuqur bo'ladi. Bu holatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero,




zerikarli va sokinlik holati sinfda jonli hissiyot holatini tashkil eta olmaydi. O'quvchilarni xalq qo'shiqlariga qiziqtirish birinchi navbatda tenglash va ijro etish uchun tanlanadigan asarlar repertuari bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezonlari o'quvchilarning yoshlariga, qiziqishlari, bilim va ko'nikmalari darajasiga mos bo'lishi, mavzuning rang – barangligi, g'oyaviy – badiiy sifati hamda pedagogik qimmatini bilan belgilanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, maktabda o'quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mos keladigan o'tmish va hozirgi zamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining shakl va mazmuni bilan go'zal va hayotbaxsh, nafas va hushohang asarlar yangrashi lozim. Zero, mana shunday asarlarga o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg'ota oladi, ahloqiy – estetik hissiyotlarini, zarur bo'lgan qobiliyatlarini, o'stirib boradi. Bu o'rinda zamonaviy qo'shiqlar qatori xalq qo'shiqlaridan keng va oqilona foydalanish darsni yanada qiziqarli va sermazmun bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarda xalqimiz ijodiga, uning musiqa va qo'shiq san'atiga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllantirib boradi.

VI-VII sinfning har bir darsida ijodiy faollik yuzaga keladi. O'quvchilarni xalq qo'shiqlariga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushunarli va qolaversa asarlarning rang – barang bo'lishligiga bog'liqdir. Musiqa asarlari rang – barang ko'rgazmali qurollar, musiqa haqidagi ajoyib dalil va ma'lumotlarga boy bo'lgan, boshidan oxirigacha sust bo'lmagan sur'atda tashkil qilinadigan darslar o'quvchilar xotirasida yorqin saqlanadi.¹


“Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p marta mushohada qilganman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir”, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov.

¹ Gulyor. Nashrga tayyorlovchi Hoshimjon Razzoqov. Toshkent. – 1967 y.



Shuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda.

Bu borada musiqa san`ati, xususan, qo`shiqchilik ikki buyuk san`atni – she`riyat va musiqani o`zida mujassamlashtirgani holda katta tarbiya quroliga aylanadi.



2.3. An`anaviy xalq kuy – qo`shiqlari –estetik tarbiya vositasi

Milliy musiqaning eng ommalashgan turi xalq qo`shiqlaridir. Xalq qo`shiqlarida voqea – hodisalar yakka shaxsning botiniy kechinmalarida o`z aksini topadi va bu holat jamoaning his – tuyg`ulari bilan uyg`unlashgan holda jaranglaydi. Shu boisdan ham milliy kuy va qo`shiqlarimiz yoshlarni tarbiyalashda muhim manba bo`lib hisoblanadi.


Bugungi kunda shunday tarbiyaviy manbaga ega bo`lgan xalq qo`shiqlarining VI-VII sinf dasturidagi o`rni qanday? Milliy qo`shiqlardan yoshlarni tarbiyalashda biz qanday foydalanayapmiz?

Ma`lumki, umumta`lim maktablarida musiqa madaniyati darslari o`quvchilarda axloqiy – estetik tarbiyani shakllantirish hamda rivojlantirishda qulay va samarali vosita sifatida o`qitiladi.

Bu darslarda o`quvchilar milliy musiqamiz durdonalari bilan birga jahon xalqlari musiqa madaniyati namunalaridan ham voqif bo`ladilar. lekin musiqa o`qituvchisi uchun o`quvchilarni milliy musiqamizning chuqur ildizlari, qo`shiqlarning yaratilish tarixi, ularda kuylanadigan g`oya va maqsadlar bilan tanishtirish asosiy vazifa hisoblanadi. O`quvchilar an`anaviy xalq qo`shiqlarini tinglaganda yoki kuylaganda, ularda milliy g`urur, Vatanni, millatni chin dildan sevish, go`zallikni, ezgulikni his etish, pok niyat va chinikam insoniy tuyg`ular shakllanib boradi. Bugungi kunda muhim tarbiyaviy vosita manbai bo`lgan milliy qo`shiqlar maktab musiqa darsliklaridan qay darajada o`rin olganligi quyidagi manzarada namoyon bo`ladi.

Men ushbu maqsadni amalga oshirishda tahlil asosiga ko`ra VI-VII sinf o`quvchilari uchun yaratilgan musiqa darsliklarini oldim.

VI-VII sinf o`quvchilarga musiqa tinglash uchun to`rtta – “Andijon pol kasi”, “Do`loncha”, “Chertmak”, “Dilxiroj” kuylari; kuylash uchun to`rtta – “Chitti gul”, “Osmondagi oy”, “Olmacha anor”, “Choriy chamber” singari xalq qo`shiqlari tanlandi.




Bundan shu narsa ayonki, VI-VII sinf musiqa darsligida kuylash va tinglash uchun berilgan asarlar shu kunning talabiga ham javob bermaydi. Bu esa, mazkur sinf o'quvchilarining estetik talab va ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi tabiiy. Bunday holatni 2 -, 3 -, 4 - sinf darsliklarida ham kuzatish mumkin. Shularni nazarda tutgan holda nazarimizda boshlang'ich sinf "Musika" darsliklari quyidagi xalq qo'shiqlari bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiqdir.¹

Bu siraga "Begimjon ukam", "Borolmadim", "Alpomish", "Yallama yorim", "Gullola", "Gulyor", "Gul o'yin", "Do'st - do'st", "Anorxon", "Chiroyli", "Qani - qani", "Qizgina", "Bodom qovoq", "Omon - omon", "Giryon qozoq", "Qal'a bandi" singari qadimiy kuy va qo'shiqlar, shuningdek, respublikamiz vohalariga xos bo'lgan "Buxorocha", "Mavrigi", "Tumani", "Namanganning olmasi", "Lazgi", "Andijon samosi", "Azim daryo" hamda Vatanni, istiqlolni madh etuvchi davr qo'shiqlari kiradi. Ta'kidlash joizki, yuqorida eslatilgan "Buxorocha" va "Mavrigi" qo'shiqlaridan namunalar yuqori sinf "Musika" darsliklariga kiritilgan. Lekin "Buxorocha" va "Mavrigi"lar turkum sifatida shakllanganligi bois, ulardan ayrim namunalarni boshlang'ich sinf darsliklariga ham kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shuni e'tirof etish kerakki, umumiy o'rta ta'lim standarti asosida "musika madaniyati" fani bo'yicha 5-7 sinflar uchun darslik tuzishda mualliflar A.Mansurov, D.Karimova, S.Begmatov, Q.Ma'mirov, I.Ro'ziev, O.Ibrohimov, J.Sadirovlar milliy musiqamizning barcha imkoniyatlaridan keng foydalanganlar va ushbu dastur tuzishda ular o'zgacha usulni qo'llaganlar.

Mualliflar ta'kidlaganidek, dasturning asosiy mohiyati shundaki, uning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi va o'rganish jarayonida musiqaning aniq mohiyatini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, dasturda musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki daryo mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Shuningdek, dasturda raqs va turli ritmik harakatlar, chapak, shaqildoq, qoshiq singari musiqaga jo'r bo'luvchi

¹ A.Hasanov. Xalq musiqasi – tarbiyaning muhim vositasi. Toshkent. – 1983 y.




bolalar cholg'u asboblari hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqa faoliyatlariga e'tibor qaratilganligi darsning samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ladi. Muhimi, yangi tuzilgan dasturda musiqiy asarlarning 50-60 foizini (xususan, yuqori sinflarda) milliy kuy va qo'shiqlar tashkil etishidir. Ayniqsa, xalq kuy va qo'shiqlari qatori mumtoz ashulalarimiz, hatto maqomlarning mushkilot va nasr qismlaridan sho'xbalar kiritilganligi ayni muddaodir.

Endigi maqsad ana shu dastur asosida yaratilayotgan darslik hamda qo'llanmalar mazmunini tiklanayotgan qadimgi milliy xalq kuy va qo'shiqlari, Xorazm xalfachilik maktabi repertuaridan namunalar, dostonchilik qo'shiqlari, Farg'ona vodiysining o'ynoqi, sho'x lapar va yallalari, shuningdek, Surxon vohasining jozibador fol klor qo'shiqlari hisobidan boyitish, dastur sifatini yaxshilash, eng asosiysi, dasturdagi vazifalarni to'la – to'kis amalda qo'llash evaziga musiqa madaniyati darslari sifati hamda mavqeini ko'tarishdan iboratdir.

Darslar davomida o'rganilayotgan har bir xalq qo'shig'i o'quvchida yashirinib yotgan qobiliyat iqtidorlarni topish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Qo'shiq bolalardagi salbiy sifatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Milliy – madaniy merosni o'rganish va o'zlashtirish orqali o'zbek millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissini uyg'otadi. An'anaviy xalqining boshqa xalqlarda uchramaydigan andishalik, hayo, ibo, bir – birini qadrlash, odob – axloq me'yorlarini ham qo'shiq tarbiyalay oladi.

VI-VII sinfda ba'zan uchrab turadigan tarbiyasi og'ir bolalar o'z ota – onalarini xafa qilgan paytlarida radio – televidenie orqali uzatilgan pand – nasihatlar bor qo'shiqlarni tinglaganlarida o'z vaqtida uzr so'ragan holatlari ham uchrab turadi. Chunki milliy musiqa orqali insonda oliyjanoblik, ulug'vorlik yuzaga keladi.

An'analarga sodiqlik tushunchalarini yoshlar ongiga singdirib borishda ularni g'arbliklarga taqlid qilib kuylashini tinglashi va shu asosda o'zlariga tarbiyaviy saboq chiqarish lozimligini o'rgatish lozim. Ayniqsa, o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib, ularda milliy ohanglarni his eta bilishni shakllantirish kerak.




O'quvchilarni aqliy – axloqiy, madaniy – ma`naviy jihatdan tayyorlamasdan, fanga iste`dodli yoshlarning kirib kelishini ta`minlamasdan, yoshlarni zamonaviy fan – texnikaning yutuqlaridan bahramand qilmasdan, qo'llab – quvvatlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonib – ishonmasdan turib musiqa madaniyatini rivojlantirib bo'lmaydi. Shunday ekan, ularni ma`naviy barkamollikka erishishlarida milliy musiqamizning kuch – qudratiga tayangan holda ibratli pand – nasihatga boy, xalqona yo`lda yaratilgan kuy va qo'shiqlardan foydalanishimiz zarur.

Ma`lumki, musiqa fanining nomi o`zining evolyutsion taraqqiyoti jarayonida ko'p marta o'zgardi. Dastlab “Ashula” darsi, keyinchalik “musiqa” darsi deb nomlanadi. Bir vaqtlar “Sanoi nafisa”, “Ma`naviyat”, “Axloq” darslari deb ham yuritilgan. Lekin bu bilan rostini aytganda musiqa darsining na mazmuni, na sifati va na mavqeida o'zgarish bo'ldi.

Bugun esa, davr boshqacha, jamiyat boshqa, yoshlarda dunyoqarash boshqacha, xususan, xukumatimizning madaniyat, san`at va ma`naviyatiga e`tibor boshqacha.

Shundan kelib chiqib, to'la ishonch bilan aytish mumkinki, musiqa madaniyati darsi bo'yicha yaratilajak dastur va darsliklardan milliy kuy – qo'shiqlarimiz mustahkam o`rin oladi. Va biz uni amaliy faoliyatimizda keng qo'llab, axloqiy – estetik jihatdan barkamol yangi avlodni tarbiyalashga erishamiz. bormoqda.



2.4. O'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish yo'llari


VI-VII sinf o'quvchilarining ma'naviy, madaniyatli etib tarbiyalashda musiqa tarbiyasi ustivor vositalardandir. Ta'lim maskanlarida o'tkaziladigan musiqa mashg'ulotlarining asosiy maqsadi go'zallik qonuniyatlari asosida barkamol shaxsni shakllantirish vazifalarini amalga oshirish uchun xizmat qilishdan iborat bo'lishi lozim.

“Umumta'lim maktablari uchun musiqiy ta'lim” dasturi istiqbolga mo'ljallangan davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan me'yor va talablar asosida tuzilgan. Bolalarning nafosat hissiyotlarini tarbiyalash, milliy ruh, milliy musiqa ohanglarini imkon qadar o'zida mujassam etib, musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalarni tarkib toptirish dasturining asosiy mezoni hisoblanadi.

Dasturda mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqa merosini bolalarni idrok etish qobiliyati darajasida bosqichma – bosqich tadbiriq etish nazarda tutilgan.

VI-VII sinf uchun belgilangan musiqiy ta'lim dasturida tavsiya etilgan asarlar, musiqa repertuarlari o'quvchilarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm – shafqat kabi xislatlar musiqaviy obrazlar orqali idrok etilishga qaratilgan.

Musiqiy tarbiya metodikasida qo'shiq aytish faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Milliy ruhni o'zida aks ettirgan xalq qo'shiqlari va laparlari bolalarni olamni badiiy his va idrok etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Jumladan, boshlang'ich sinf bolalariga avvalgi tavsiya qilgan asarlarimizdan tashqari yana bolalar xalq qo'shiqlaridan “Oymomo tilla”, “Olmajon”, “zuv – zuv borag'ay”, “kichkinajon - kichkina” asarlarini, yuqori sinf o'quvchilariga esa “Oshxo'rakam kaptar”, “Beshtosh”, “O'ynaylik omon”, “Bu bog'chada olicha”, “Oq sholi”, “Ko'k sholi”, “Dasta - dasta”, “Boychechak”, “Qaldirg'och” kabi asarlarni yil davomida o'rganish tavsiya qilinadi.



Xalq qo'shiqlarini tanlab o'rgatishda bolalarning kuylash malakalariga ega bo'lgan ovoz xususiyati, ularning musiqiy qobiliyat darajasi, shuningdek, badiiy didini to'g'ri tarbiyalash va ularning musiqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish zarurligini hisobga olish kerak.

Bolalarning qo'shiqni tez va yaxshi o'zlashtirishlari musiqa o'qituvchisining qo'shiq o'rgatish metodini to'g'ri tanlashiga bog'liqdir. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab bu metod har xil bo'lishi mumkin. Odatda qo'shiq o'rgatishning quyidagi bosqichlariga amal qilinadi:¹


a) kirish suhbat; bu qo'shiq o'rgatishni boshlash oldidan o'tkaziladigan kichik suhbat. Kirish suhbatida o'rganiladigan qo'shiqning mazmunini oldindan aytib bermay, suhbat mavzusiga bolalar e'tiborini jalb qilish uchun ularga: "Qo'shiqni tinglab, uning nima haqida kuylanishini aytib bering" yoki "Qo'shiqni tinglang va uning necha kupletdan iborat ekanligini aniqlang?" kabi savol hamda topshiriqlarni berishni puxta o'ylab ko'rmoq kerak.

b) bolalarni qo'shiq bilan tanishtirish; bolalarga qo'shiq o'rgatish asosiy ish bo'lib, bolalar asar bilan birinchi marta tanishgandayoq asar ularda yorqin taassurot qoldirish lozim. Qo'shiq bolalarga yoqib tushsa, ular bu qo'shiqqa qiziqib qoladilar va uni oson o'rganadilar. Musiqa o'qituvchisi qo'shiqni kuylayotganda o'zini bolalar auditoriyasida emas, balki tomosha zalida ashula aytayotgandek artistdek his qilib, bu ishga jiddiy yondoshishi kerak. Chunki o'quvchilar har qanday soxtalikni darrov sezadilar.

v) eshittirilgan qo'shiq haqida suhbat; musiqa o'qituvchisi ikkinchi suhbatni bolalar qo'shiqni tinglaganlaridan so'ng o'tkazadi. Bu suhbatda qo'shiq to'liq tahlil qilinib, uning tuzilishidagi o'ziga xos tomonlari bolalarning nazariy bilimlari doirasida tushuntiriladi.

g) qo'shiqning kuyini o'rgatish; o'qituvchi avval qo'shiq matnini to'liq, ifodali o'qiydi va o'quvchilarga notanish so'zlarning ma'nosini tushuntiradi. Qo'shiq kuyini o'rgatayotganda bolalarning diqqat bilan eshitib turishlari talab etiladi va shu asosda o'rgatiladi.

¹ Mintaqaviy ilmiy – nazariy anjuman materiallari. Namangan – 2007 y.



d) qo'shiqning badiiy ijrosi ustida ishlash; qo'shiqning badiiy ijrosini yaxshilash ishi qo'shiqni o'rgatish vaqtidan boshlanadi. Ohang hosil qilish, nafas olish va chiqarish, yaxshi ansambl, aniq talaffuz – qo'shiqni badiiy ijro etish elementlaridir.

Agar musiqa xonasida magnitofon bor bo'lsa, asarni magnit tasmasi orqali eshittirish mumkin. Lekin qo'shiqni musiqa o'qituvchisining o'zi yajro qilib eshittirishi bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. O'qituvchi o'z ovozi bilan har qanday xalq qo'shig'ini iliq his – tuyg'u bilan ijro eta olmog'i lozim.

VI-VII sinfda xalq qo'shiqlarini kuylashda uning tempini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega. Tez aytiladigan qo'shiqlar ko'pincha avval ohista tempda boshlanib, asta – sekin tempni tezlashtirish bilan o'zlashtiriladi.


Qo'shiqni u yoki bu bo'lagini kuchli yoki kuchsiz aytilish sababli bolalarga tushunarli bo'lishi uchun ular asarning dinamik tuslar vazifasini anglashlari lozim.

Xalq qo'shiqlarida matnni to'g'ri talaffuz qilish – ma'noli kuylashning garovidir. So'zlarni aniq, ravon aytish har bir qo'shiqni ijro qilishdagi asosiy talab bo'lib, matnni to'g'ri talaffuz qilish qo'shiqning badiiy abrazini ochib berishda muhim o'rin tutadi.

Masalan, cho'zib aytiladigan qo'shiqlarda undosh tovushlar yumshoqroq talaffuz qilinadi, dadil va jo'shqin kuylanadigan qo'shiqlar esa aniq hamda qattiqroq aytiladi.

Musiqa o'qituvchisi musiqa darsida ko'pincha chalish bilan band bo'lgani uchun qo'shiq kuylashni boshi ishorasi bilan boshqaradi. Bu boshqarishda mimika, imo – ishora harakatlari katta rol o'ynaydi. Lekin bu harakatlar dirijyorlikni to'la aks ettirmaydi. Shuning uchun u qo'shiqni goho musiqa jo'rligisiz ijro ettirib, o'zi esa bolalar oldida turib qo'shiq kuylashga dirijyorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shundagina bolalar musiqa o'qituvchisining qo'l harakatlariga ko'nikib boradilar va uni keyinchalik tushunadigan bo'lib qoladilar.

Xalq qo'shiqlarining ijro uchun qulayligi musiqiy ravonligi hatto VI-VII sinf o'quvchilari xorida aytishda ham qiyinchilik tug'dirmaydi.



An`anaviy xalq og`zaki badiiy ijodida keng tarqalgan qadimiy janrlardan biri, demek, xalq qo`shiqlaridir. Xalq qayg`uli kunida ham, shod – xurramligida ham qo`shiq aytadi. Bola qo`shiq bilan yo`rgaklanadi, yigit – qiz to`ylari qo`shiqsiz o`tmaydi. Mehnat bilan kurash qo`shiq bilan yengillashadi. Shuning uchun xalqimiz “Suygan ham qo`shiqchi, kuygan ham qo`shiqchi” deb bejiz aytmagan.

Barcha davrlarda, turli mavzularda yaratilgan qo`shiq o`z zamonasining mevasi bo`lishi bilan birga, uzoq o`tmishning tarixiy yodgori hamdir. Musiqa va tarbiya bir – biri bilan uzviy bog`liq hodisa hisoblanadi. Musiqa odamda insoniylik, samimiylik, birodarlik tuyg`usini kuchaytira oladigan mo``jizakor kuch. Musiqaning yaratilishi va taraqqiyoti xalqning iqtisodiy – ma`naviy turmush tarzi, falsafiy, estetik qarashlari bilan bog`liqdir. Xalqning yaxshi kunlari ham, yomon kunlari ham kuy bilan birga o`tadi.

Xalq donishmandligining go`zal ko`rinishi bo`lgan an`anaviy xalq musiqa merosi yoshlar dunyoqarashida muhim tarbiya vositasi sifatida musiqa darslarida o`rganib borilmoqda. Xususan, an`anaviy xalq qo`shiqlari ommabop janr bo`lib, xalq ruhiyati, xalq hayoti va dunyoqarashi haqida mukammal ma`lumot mavjudki, bu ohanglarni idrok etish uchun o`sha xalq ruhiyatini tushunish kerak.

An`anaviy xalq qo`shiqlari xalq ijodining bir qismigina emas, inson ruhining pedagogi va rahnamosidir. Qo`shiq inson dunyoqarashini shakllantiradi, o`z kuchiga ishonish, ruhni tiklash, vaqtinchalik muvoffaqiyatsizliklar oldida o`zini yo`qotib qo`ymaslik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Nafis qo`shiq tinglayotgan kishi ijrochi qalbida kechayotgan hissiy g`alayonlarga sherik bo`ladi, asarning g`oyaviy idealini ko`z oldida gavdalantiradi.

VI-VII sinf darslari davomida an`anaviy xalq qo`shiqlari va bolalarning mavsum – marosim qo`shiqlari namunalari bilan doimiy tanishtirilib borilsa ijobiy natijalar beraveradi.

An`anaviy xalq qo`shiqlari o`quvchilarning tabiat, inson, so`z sehri haqida qarashlarini boyitadi. Taniqli olim, musiqa san`atimizning chinakam jonkuyari Yunus Rajabiy yozib olib nashr ettirgan “An`anaviy xalq musiqasi” kitobining III

tomida bir qator bolalar qo'shiqlari ham notaga olinib, bu samimiy orzular qanotiga bitilgan bu xandon misralar yosh yuraklar to'ridan otilib chiqqan san'atdir. "Boychechak", "Tomdan tarasha tushdi", "Olatoy", "Chuchvara qaynaydi", "Laylak keldi", "Oftob chiqdi", "Chittigul", "Mo'ndi - mo'ndi", "Chori chamber", "Zuv – zuv borag'ay", "Oq terakmi ko'k terak?" kabi qo'shiqlar fikrimiz dalilidir. Bu qo'shiqlar, bir tomondan, urf – odatlarimiz bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, yoshlarning estetik didiga mosligi bilan karakterlanadi. Bolalar qo'shiqlarida ovoz diapozoni kvarta atrofida bo'lib, tez ijro etiladi.


Xalq qo'shiqlari o'zining soddaligi va ijro uchun qulayligi bilan barchani birday maftun etadi.

An'anaviy xalq qo'shiqlarining mungli, mag'rur, jozibali ohanglari inson qalbiga kuchli ta'sir etishi bilan birga, bolaning shaxs sifatida shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Hali yozuv bo'lmagan davrlardayoq xalq o'z qo'shiqlarida qiyin va tahlikali turmushning turli qirralarini kuyga solib tarannum etgan. Xalq qo'shiqlariga yoshlarni qiziqtirib, o'rgatib borilmasa hamda noyob xalq merosiga musiqa jamoatchiligi yetarli darajada e'tibor bermasa, bu san'at kelajak avlod xotirasidan asta – sekin o'chib boradi va buning natijasida insoniyat yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan asarlardan bebahra qolishi mumkin.¹

An'anaviy xalq qo'shiqlari badiiy va g'oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal shakllarga, juda ko'p tarixiy dalillarga ega bo'lgan san'at turidir. Unda milliy musiqaning eng yorug' koloritlari, nafosati xalqning falsafiy – ijtimoiy tafakkuriga boy, teran fikr va g'oyalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi zamirida har bir millatning o'z boshidan kechirgan voqealari, uning erk va baxt uchun kurashlarini yaqqol ko'rish mumkin.

Dono xalqimiz yaratgan boy musiqa merosi ulkan ma'naviy boyligimiz bo'lib, u yoshlarni axloqiy va g'oyaviy estetik tarbiyasi uchun ham bebaho manba bo'lib hisoblanadi. Chunki, go'dak ham xalq musiqasining eng nafis va orombaxsh turi – ona allasini beshikda yotganida hali tili chiqmasdanoq idrok eta boshlaydi.

¹ Mintaqaviy ilmiy – nazariy anjuman materiallari. Namangan – 2007 y.




Shunday ekan, VI-VII sinf o'quvchilarida go'zallikka, nafosatga, xalq madaniyatiga hurmat hissini tarbiyalash, san'atdan ruhiy ozuqa olish ehtiyojini vujudga keltirish kerak. Chunki inson qalbida doimo go'zallikka tashnalik bo'lgandagina barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Har bir ijtimoiy taraqqiyotdagi ijobiy yoki salbiy voqealar xalq qo'shiqlarida, dostonlarida, raqslarida o'z aksini topib kelgan. Xalq musiqa merosi bitmas – tunganmas xazina bo'lib, yoshlarni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi badiiy – estetik manba hisoblanadi.

Musiqa insonning xotirasini va ritmik tuyg'usini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqiy qobiliyatning o'sishi musiqa asarlarini badiiy idrok etib, undan estetik zavq ola bilishga o'rgatadi, natijada shu san'atni sevuvchi va qadrllovchi kishilarni tarbiyalaydi.

Badiiy va barkamol hamda g'oyaviy yuksak an'anaviy xalq qo'shiqlari hozirgi zamon kishisining axloq me'yorlariga mos keladi. Xalq ashulalari insonning go'zalligi va nafosat haqidagi tasavvurini kengaytiradi, kundalik mehnat jarayonida ilhom va bitmas – tunganmas quvonch baxsh etadi.

Musiqa tarbiyasi natijasida paydo bo'ladigan estetik idrok maktab o'quvchilarida insonparvarlik, ijtimoiy hamkorlik, hamjihatlilik, mehr – oqibatlilik tuyg'usini shakllantirishda tobora yuksak ahamiyat kasb etib boradi.



Xulosa

An`anaviy xalq og`zaki badiiy ijodida keng tarqalgan qadimiy janrlardan biri qo`shiqdir. Xalq qayg`uli kunida ham, shodligida ham qo`shiq aytadi. Bola qo`shiq bilan yo`rgaklanadi, yigit – qiz tuyg`ulari qo`shiqsiz o`tmaydi. Mehnat bilan kurash qo`shiq bilan yengillashadi. Shuning uchun xalqimiz “Suygan ham qo`shiqchi, kuygan ham qo`shiqchi” – deydi.

Barcha davrlarda, turli mavzularda yaratilgan qo`shiq o`z zamonasining mevasi bo`lishi bilan birga, uzoq o`tmishning tarixiy yodgori hamdir.


Musiq va tarbiya bir – biri bilan uzviy bog`liq hodisa sanaladi. Musiq odamda insoniylik, samimiylilik, birodarlik tuyg`usini kuchaytira oladigan mo`jizakor kuch. Musiqaning yaratilishi va taraqqiyoti xalqning iqtisodiy – ma`naviy turmush tarzi, falsafiy, estetik qarashlari bilan bog`liqdir. Xalqning yaxshi kunlari ham, yomon kunlari ham kuy bilan birga o`tadi.

O`zbek fol klor qo`shiqlari xalq ijodining bir qismigina emas, inson ruhining pedagogi va rahnamosidir. Qo`shiq inson dunyoqarashini shakllantiradi, o`z kuchiga ishonish, ruhni tiklash, vaqtinchalik muvoffaqiyatsizliklar oldida o`zini yo`qotib qo`ymaslik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Nafis qo`shiq tinglayotgan kishi ijrochi qalbida kechayotgan g`alayonlarga sherik bo`ladi, asarning g`oyaviy idealini ko`z oldida gavdalantiradi.

Darslar davomida o`zbek fol klor qo`shiqlari va bolalarning mavsumiy marosim qo`shiqlari namunalari bilan doimiy tanishtirib borilsa ijobiy natijalarga erishiladi.

O`zbek fol klor qo`shiqlari o`quvchilarning tabiat, inson, so`z sehri haqidagi qarashlarini boyitadi. Xalq qo`shiqlari o`zining soddaligi va ijro uchun qulayligi bilan barchani birday maftun etadi.

Shunday ekan, yoshlarda go`zallikka, nafosatga, xalq madaniyatiga hurmat hissini tarbiyalash, san`atdan ruhiy ozuqa olish ehtiyojini vujudga keltirish kerak. Chunki inson qalbida doimo go`zallikka tashnalik bo`lgandagina barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Har bir ijtimoiy taraqqiyotdagi ijobiy yoki salbiy voqealar xalq qo`shiqlarida, dostonlarida, raqslarida o`z aksini topib kelgan. Xalq musiq



merosi bitmas – tunganmas xazina bo'lib, yoshlarni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi badiiy estetik manba hisoblanadi.

Musiqqa insonning xotirasini va ritmik tuyg'usini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Musiqqa tarbiyasi va o'zbek fol kloriga qo'shiqlari natijasida paydo bo'ladigan estetik idrok maktab o'quvchilarida insonparvarlik, ijtimoiy hamkorlik, hamjihatlik, mehr – oqibatlilik tuyg'usini shakllantirishda tobora yuksak ahamiyat kasb etib boradi.

Musiqqa va qo'shiqchilik badiiy adabiyot va adabiyot tarixi bilan uzviy bog'langan holda rivojlanib boradi. Kishilar xalq qo'shiqlaridan bahramand bo'lganda ularda estetik zavq, ijodiy fikr rivojlanishi bilan bir qatorda o'zbek tiliga bo'lgan munosabat yoki qiziqish ham ortib boradi.


Umuman olganda bitiruv malakaviy ishida bergan fikr – mulohazalarimiz asosan ishning pirovardida quyidagi takliflarimizni taqdim etishni lozim, deb bildik:

1. Maktab o'quvchilariga, ularning ovoz xususiyatlari va diapozonlariga mos an'anaviy xalq hamda bolalar qo'shiqlarini to'plab, sinf xususiyatlaridan kelib chiqib nashrga tayyorlash zarur.


2. Yaxshi jamoa ijrosida xalq qo'shiqlarini maxsus yozib olib, respublika umumta'lim maktablariga tarqatish kerak.

3. Hech bo'lmaganda 2 yilda 1 marta xalq qo'shiqlari ijrochi jamoalarning respublika tanlovini o'tkazish lozim.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida musiqqa madaniyati darslari o'quvchilarda axloqiy – estetik tarbiyani shakllantirish hamda rivojlantirishda qulay va samarali fan sifatida o'qitiladi. Bu darslarda o'quvchilar milliy musiqamiz durdonalari bilan birga, jahon xalqlari musiqqa madaniyati namunalaridan ham voqif bo'ladilar. Lekin musiqqa o'qituvchisi uchun o'quvchilarni milliy musiqamizning chuqur ildizlari, qo'shiqlarning yaratilish tarixi, ularda kuylanadigan g'oya va maqsadlar bilan tanishtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Maktab o'quvchilari an'anaviy xalq qo'shiqlarini tinglaganda yoki kuylaganda




ular da milliy g'urur, ona Vatanni sevish, millatni chin qalbdan qadrlash, go'zallikni, ezgulikni his etish, pok niyat va chinakam insoniy tuyg'ular shakllanib boradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov. “Barkamol avlod – O’zbekiston kelajagining poydevori”. Toshkent. – 1997 y.
2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to’g’risidagi qonuni. Toshkent. – 1997 y.
3. Muzayyana Alaviya. An’anaviy xalq marosim qo’shiqlari. Toshkent. – 1974 y.
4. Muzayyana Alaviya. An’anaviy xalq qo’shiqlari. Toshkent. – 1959 y.
5. Mahmud Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk. Toshkent. 5 tom, 1960 y.
6. Yusuf Hos Hojib. Qutadg’u bilig. Toshkent. – 1971 y.
7. Oq olma, qizil olma. An’anaviy xalq qo’shiqlari. Ko’p tomlik. Toshkent. –1972 y.
8. O’zbek fol klori ocherklari. Uch tomlik I tom. Toshkent. – 1988 y.
9. F.Karamatov. An’anaviy xalqi musiqa merosi. Toshkent. – 1978 y.
10. Boychechak. Bolalar fol klori. Toshkent. – 1984 y.
11. Namangan yor – yori. To’plovchi A.Sobirov. Namangan – 1995 y.
12. Jamoa. Musiqiy tarbiyaning dolzarb muammolari. Namangan – 2008 y.
13. Alisher Navoiy. Xamsa. O’zbekiston fanlar akademiyasi. Toshkent. – 1958 y.
14. F.Karamatov. O’zbekskaya narodnaya instrumental naya muzo’ka. Toshkent.– 1972 y.
15. Xorazm xalq qo’shiqlaridan namunalar. Nashrga tayyorlovchi J.Qobulniyozov. Toshkent. - 1965 y.
16. Gulyor. Nashrga tayyorlovchi Hoshimjon Razzoqov. Toshkent. – 1967 y.
17. A.Hasanov. Xalq musiqasi – tarbiyaning muhim vositasi. Toshkent. – 1983 y.
18. N.Talliboev. Musiqaviy meros va tarbiya. Toshkent. – 1982 y.
19. A.Hasanov. Qo’shiq bizga hamisha hamrox. Toshkent. – 1979 y.
20. Mintaqaviy ilmiy – nazariy anjuman materiallari. Namangan – 2007 y.



Mundarija

Kirish	
I bob. VI-VII sinflarda qo' shiqchilik ovozi va DTS talablari.....	
1.1. VI-VII sinf o' quvchilarini musiqiy – estetik ruhda tarbiyalashda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati.....	
1.2. DTS bo'yicha VI-VII sinf dasturiga qo'yilgan talablar	
1.3. O' quvchilarda vokal – xor malakalarini shakllantirish.....	
1.4. Xalq qo' shiqlarini o' rganishda musiqa savodiga e'tibor	
II bob. Yuqori sinflarda an'anaviy xalq qo' shiqlaridan foydalanish	
2.1. An'anaviy xalq musiqa ijodining janrlar tarkibi.....	
2.2. O' quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalq qo' shiqlarining ahamiyati.....	
2.3. An'anaviy xalq kuy – qo' shiqlari –estetik tarbiya vositasi.....	
2.4. Xalq qo' shiqlarida ishq – muhabbat mavzusi	
2.5. O' quvchilarga xalq qo' shiqlarini o' rgatish yo'llari	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar	

